

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

N.A. XOLMIRZAYEV, S.S. MAYDONOVA

KREATIV PEDAGOGIKA

(1-qism)

O‘QUV QO‘LLANMA

*Mazkur o‘quv qo‘llanma pedagogika oliy o‘quv yurtlarining
60110100-“Pedagogika va psixologiya” bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan.*



NAVOIY - 2024

UO‘K 37.013(075.8)
KBK 32.973-018ya73
X 80

Kreativ pedagogika [Matn]: O‘quv qo‘llanma / N.A.Xolmirzayev, S.S. Maydonova, – Navoiy: “NAVOIY” nashriyoti, 2024. – 176 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Kreativ pedagogika fanidan ilmiy-amaliy bilim, konikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan. Pedagogika psixologiya yo‘nalishi tinglovchi (umuta’lim maktab o‘qituvchi)lari va o‘quvchilar (pedagogik litsey va kasb-hunar kolleji)ning bilim-ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar umumiy pedagogikaning ob‘ekti, predmeti va metodlari, uning fanlar tizimida tutgan o‘rni va asosiy tarmoqlari, shaxsni shakllantirishda, insonning xulq-atvori, muloqoti va faoliyatida ta’lim va tarbiyaning tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi ko‘rib chiqilgan. 60110100-“Pedagogika va psixologiya” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan pedagogika fanlari o‘qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari, bakalavriatning pedagogika yo‘nalishlari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Mualliflar:

Xolmirzayev N.A., Maydonova S.S.

Taqrizchilar:

K.M.Astanakulov – Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich ta’lim va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

D.F.Jabborova – Navoiy davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 - yil 6 - sentyabrdagi 333 - sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat
berildi. (Ro‘yxatga olish raqami. № 333-351)*

© N.A. XOLMIRZAYEV, S.S. MAYDONOVA, NavDU.

© «NAVOIY» nashriyoti, 2024.

ISBN 978-9910-654-61-9

KIRISH

Zamonaviy innovatsiyalar shiddat bilan o'sib, rivojlanib borayotgan ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxshi kasbiy mahorati uning dars jarayonidagi qobiyilatlari cheksiz va yangiliklarga boy hisoblanadi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida. Ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib brogan. Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi.

“Kreativ pedagogika” fanining maqsadi: kurs talabalarini kreativ pedagogikaning umumiy asoslari, tamoyillari, pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtirish orqali ularda o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonini, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini samarali tashkil etishga nisbatan kreativ yondashish malakalarni rivojlantirishdan iborat.

Yangilangan ta'lim tizimi, o'qitish mazmuni asosida o'quv darsliklari, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish, o'quv-tarbiya jarayonini, o'qituvchi faoliyatini texnologiyalashtirish, dars shakllarini

loyihalashtirishga yangicha yondashishni talab qilmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasida ta'lim islohotlari, Kreativ pedagogika fanining mavzusi, imkoniyatlari, qobiliyatlari, ilmiy tadqiqot metodlari, shaxs, uning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiya, ta'lim nazariyasi hamda turli tarixiy davrlarda pedagogik bilim, maktab, maorif masalalari yangi pedagogik ta'lim konsepsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan.

1. § KREATIV PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA

1.1. “KREATIVLIK” VA “KREATIV PEDAGOGIKA” TUSHUNCHALARINING MOHIYATI.

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart- sharoitni yaratishga xizmit qiladi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “Kreativlik” tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “Kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g'oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi:

“Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshirilaigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “Muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy

ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

"Kreativlik" tushunchasi quyidagicha. "Creatio" - "yaratish", "ijodkor" - "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatsada lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishidir. Ijodkor shaxslar - bu rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratchilar - turli xil ijod turlarida o'z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar. Ijodkorlik, qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir: dizaynerlar, reklama beruvchilar, marketologlar, brend-menejerlar va boshqalar.

Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. "Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar

Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir

tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi.

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1. O‘quvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e‘tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2. O‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an‘anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta‘lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta‘minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur: Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- bilishga oid (gnostik) malakalar;
- loyihalash malakalari;
- ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- tadqiqotchilik malakalari;
- muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- tashkilotchilik malakalari;
- izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) malakalar;
- texnik-texnologik malakalar

o'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish laoyiqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadiy);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kretiv layoqat quyudagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

- Kreativlik maqsad;
- Ijodiy intilish;
- Kreativ (ustanovka) qurish;
- Kreativ yo'nalish;
- Kreativ ifodali akt;
- Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
- Kreativ faollik;
- Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Ijod madaniyat singari, inson hayotiga, demak, ta'lim tizimiga ham kirib borishi kerak. Binobarin, ijodiy pedagogikaning ijtimoiy fanlari tizimida ya'ni pedagogikaning yangi tarmog'i sifatida rivojlanishi uchun qator shart-sharoitlar mavjud. Kreativ pedagogika - bu ijodiy ta'lim fani va san'atidir. Bu pedagogikaning majburlash pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga qarama-qarshi bo'lgan pedagogikaning bir turi hisoblanadi. Kreativ pedagogika o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, kelajagini yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadi. Kreativ pedagogika, har qanday fanga, xoh matematika, xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo'lsin, qo'llanilish mumkin bo'lgan pedagogikadir. Ma'lum darajada aytish mumkinki, uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini o'zgartiradi

1.2. KREATIV PEDAGOGIKA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI, ASOSIY KATEGORIYALARI.

Har qanday fan singari "Kreativ pedagogika" fani ham o'zining tarkibiy tuzilmasiga ega. Ushbu fan quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

- kreativ ta'lim asoslari: maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, sub'ektlari, mazmuni, metodologiyasi, shakllari, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari;
- - malakali kadrlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsni shakllantirish bosqichlari

Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konseptual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi.

Ular quyidagilardan iborat:

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida ob'ektiv ijodkorlikni amalga oshiriladi.

1.3. KREATIV PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI.

Bugungi davr, asr aql zakovat, ma'naviyat, ma'rifat uzluksiz rivojlanib boruvchi asr desak adashmagan bo'lamiz. Bunda insonparvarlik, komillik iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning huquqiy, axloqiy estetik tamoyili sifatida erkin, demokratik fukarolik jamiyatini qurishning bosh mezonini bo'lib qoladi. Shunday jamiyat kishilarini, asosan yosh avlodda komillik, insonparvarlik his to'yg'ularini shakllantirishi, hayotiy zaruriyatga aylanishi qonuniyat bo'lib qoladi. Shunga asosan tarbiya to'g'risidagi fan ijtimoiy siyosiy fanlar tizimida eng muhim fanlardan biriga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan yondashilganda pedagogika fani keng qamrovli, yangicha axloqiy estetik g'oya, tushuncha, fikr, ta'lim tarbiyaning yangicha metodologik asosini boshlab beruvchi fan sifatida maydonga keladi. Zero, pedagogika fani tarbiyashunoslik to'g'risidagi

fandir.

Darhaqiqat, kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davrida pedagogika fanning alohida o'рни, funksiyasi, ilmiy bilish sohasi bo'lgan va shunday bo'lib koladi. Chunki, pedagogika tarbiya to'g'risidagi fandir. Tarbiya esa yosh avlodga ijtimoiy siyosiy tajribasini zarur bilimlar va amaliy ko'nikmalar ko'rinishida berish vositasini o'tagan, ularni mehnatga va hayotga tayyorlash omili bo'lgan. Shuning uchun ham yosh avlodni tarbiyalash pedagogika fanining predmeti bo'lib hisoblanadi. Tarbiya ijtimoiy hayotning tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda tarbiya jamiyat, ishlab chiqaruvchi kuchlarini, mehnat jarayonlarini, insonni o'zini, uning ma'naviy va jismoniy imkoniyatlarini rivojlantiruvchi kuch bo'lgan. Shuning uchun jadid tarbiyashunosligining namoyondalaridan biri Abdullo Avloniy «tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir», deb bejiz aytmagan. Shunday qilib, pedagogikaning predmeti (o'rganish sohasi, mavzusi) barkamol avlodni tarbiyalash, uni hayotga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

Tarbiya hamma vaqt ham jamiyat uchun, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot uchun juda muhim vazifasini bajargan. Zero, u avvalo har bir insonning o'ziga qaratilgandir. Ammo tarbiya har bir taraqqiyot bosqichi uchun o'z maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metod va vositalari bo'yicha o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlarning shaxs munosabatlari bilan chambarchas boglanib borishi bilan bog'liqdir. Mamlakatda qanday ishlab chiqarish kurollarining xukmronlik qilishiga karab, ushbu jamiyat uchun mazkur

ishlab chiqarish kurollari, vositalarini amalga oshiruvchi tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar talab etiladi. Bunday kishilarni tayyorlash uchun har bir ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyot davrida tarbiya o'z tizimiga ega bo'ladi. Bu tizim mazkur jamiyat va davr talablarini hisobga olishga qaratilgan. Natijada tabiatdagi, jamiyatdagi muammolar insoniyatni ma'naviy axloqiy, ruhiy aqliy rivojlanishga yo'naltirib, unga o'zining yangi xazinalarini ochib beraveradi. Tarbiya hamma vaqt yosh avlodning barkamol ruhiy dunyosi, ma'naviy axloqiy yetukligi, jismoniy sog'lomligi va bakuvvatligini ta'minlashga xizmat kilib keldi va shunday bo'lib qoladi.

O'quv - tarbiya masalalaridagi o'quv jarayonida tarbiya, ta'lim va ma'lumot o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o'rgatilishi mobaynida o'qituvchi o'quvchilarga fan asoslarini bayon etadi, shu ma'lumotlar (tushuncha, qoida ta'riflar) asosida ta'lim — tarbiyaning biror elementi yoxud tomoni hal etiladi, o'quvchilar dunyokarashi shakllantiriladi, ma'naviy — ma'rifiy sifatlari tarkib topa boradi.

Tarbiya ijtimoiy hodisasi va qadimiy tushuncha bo'lganligi sababli pedagogika fani ham qadimiy fanlar toifasiga kiradi.

Kreativ pedagogikaning fanlar tizimida quydagi pedagogika fanlari bilan aloqasi deyarli bir-birini to'ldirib, ma'lumotlar ba'zasi juda yaqin hisoblanadi.

- "Pedagogik diagnostika ya korrektsiya",
- "Pedagogik pragnostika",
- Umumiy pedagogika
- Tarbiya pedagogikasi

- Didaktika
- "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat"
- "Pedagogik riskologiya"
- "Pedagogik aksiologiya"
- "Oliy ta'lim didaktikasi" va yana bir qancha fanlar o'quv

kurslari bilan uzviy bog'langan holda talabalarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishiga xizmat qiladi va pedagogika barcha soha va fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Shunga asosan: pedagogika so'zi qadimiy Yunonistonda paydo bo'ldi. "Pedagogika" so'zi yunoncha "paidagogos" (pais, paidos - bola va + agogos - yetaklovchi) so'zidan olingan bo'lib, to'g'ridan to'g'ri "bola yetaklovchi" degan ma'noni anglatadi. Bu yerda quldorlar bolalarini maktabga kuzatib qo'yadilar, o'quv anjomlarini maktabga va maktabdan uygacha olib boradigan qullar pedagog deb atashgan.

Keyinchalik manufakturasining rivojlanishi, ishlab chiqarish qurollarining murakkablanishi va maktab ta'limi tarbiyasi mazmunninig o'zgarishi munosabati bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan va ta'lim tarbiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslarga pedagog deb atala boshlagan. Ko'p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat yosh avlodning ta'lim tarbiyasini o'rganadi deb unga tor ma'noda qaralgan. Ammo, hayot tajribasi olamning moddiy — ma'naviy tuzilishi, qurilishi, rivoji, insonning imkoniyatlari, yashash sharoiti, doimiy ravishda uning aqliy- axloqiy, jismoniy xususiyatlari bilan bog'liqligi tarbiyaning faqat bolalargina emas, balki kattalarga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ijtimoiy - siyosiy hayot va taraqqiyotning keyingi bosqichlarida pedagogika fanini yoshlar va

katta yoshdagi kishilarni tarbiyalash, o'qitish va ma'lumotli qilishning qonuniyatlari, shakl, vositasi metodlarini o'rgatuvchi fan sifatida qabul qilishga asos solindi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika faninig o'rganish sohasi (predmeti) tarbiya - ta'lim - ma'lumot bo'lib, u yosh avlodni, tarbiyalash, o'qitish, ma'lumotli qilishning qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalarini o'rgatadi. Shuningdek pedagogika fani o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish, intellektual jihatdan rivojlantirishning ma'naviy didaktik shart-sharoitlarini yaratish va ta'minlashtirishni nazarda tutadi.

Shunga asosan hozirgi davr pedagogika faning maqsadi umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim maktablarning bo'lajak o'qituvchilarining, ishlab chiqarish korxonalarining bo'lajak rahbarlarini ma'naviy-axloqiy ta'lim tarbiyaning ilmiy nazariy asoslari, kasb ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda pedagogika fani quyidagi vazifalarni o'qitishni nazarda tutadi:

- ✓ Yosh avlodni o'qitish, ma'lumotli qilish, tarbiyalashning davr talablari asosida mazmun, shakl, usul vositalarini ishlab chiqish;
- ✓ Ta'lim tarbiya jarayonini optimalashtirish (qulaylashtirish) loyihalashtirish, unga tizimli yondashishning metodologik asoslarini ishlab chiqarish;
- ✓ o'quv tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning ilmiy metodik asoslarini yaratish;
- ✓ o'qituvchi (tarbiyachi)ning pedagogik mahorat, ijod, tajribalarning ilmiy- nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;

- ✓ o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malakalarini test usuli va xalqaro dasturlar doirasida baholashning ilmiy pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

Insonshunoslik fanlari tizimida pedagogika faning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun tarbiya, ta’lim, ma’lumot qonuniyatlarini o‘rganadi va ularning yaxlitligini, uyg‘unligini ta’minlash uchun pedagogik shart sharoitlar yaratadi. Shu bois pedagogika fanining asosiy tushunchalari (kategoriyalari) tarbiya, ta’lim va ma’lumotdir.

Pedagogikaning bir-biri bilan uzviy bog‘langan muhim tushunchalari quyidagilardir: tarbiya, ta’lim, ma’lumot, inson kamoloti, insonning shakllanishi, o‘qitish, tarbiyaning asosiy qonunlari va maqsadi, pedagogik jarayon, pedagogik muhit, tarbiya turlari (aqliy, huquqiy, iqtisodiy, mehnat, ekologik, axloqiy, jismoniy va estetik), tarbiya uslublari, ta’lim metodlari, pedagogik psixologik tushunchalar (ruhiyat, shaxs, faoliyat, o‘zo‘zini anglash, muloqot, ruhiy jarayon va holat, malaka, qobiliyat, jo‘shqinlik, xarakter, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, sezgi, hissiyot, o‘rgannish va o‘rgatish).

Yuqorida keltirilgan pedagogik tushuncha (kategoriya) laming barchasiga ta’rif berish va izohlash mavzuimiz hajmiy darajasi imkonidan tashqari bo‘lganligi bois pedagogikada eng ko‘p qo‘llaniladigan asosiy tushunchalargagina izoh berishni lozim topdik.

Tarbiya har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayoni.

Ta’limga umumiy tarzda quyidagicha ta’rif berish mumkin:

ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan o'qituvchi o'quvchilarning o'zaro muloqot munosabati bo'lib, o'quv fanlariga oid tushinchalarni va yetakchi g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirib borishga asoslanadi. Buning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.

Ta'lim berish o'quvchilarga bilimni tartibli bayon qilish jarayonidir. Ta'lim va tarbiya uzviy bog'langan jarayon bo'lganligi sababli tarbiyalangan komil inson aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatish orqali ilmi, barkamol inson bo'lib yetishadi.

Ta'lim inson aqliy kamolotini yuzaga chiqaruvchi pedagogika tarbiyashunoslikning bir qismidir. Pedagogikaning didaktika bo'limi uni atroflicha o'rganadi.

Ma'lumot o'qitish va o'zicha mustaqil bilim olish jarayoni bo'lib, uning natijasida kishida bilim, iqtidor, malaka va ijobiy qobiliyatlarning rivojlanganligi, ilmiy dunyoqarashning shakllanganligi nazarda tutiladi. Pedagogik ma'lumot o'rta va oliy darajada bo'lib, o'rta ma'lumot maxsus akademik litsey, pedagogik kollejlarda bosqich shaklda boriladi. Natijada o'rta ma'lumot haqidagi guvohnoma beriladi. Oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar universitetlarda, pedagogika institutlarda, bakalavriat va magistratura bosqichlarida tayyorlanadi

Odam biologik mavjudot sanaladi, tabiiy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarga bevosita bo'ysunadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus

qonunlariga bo'ysunadi. Bulardan tashqari odamning komil inson bo'lib yetishuvida aniq maqsad asosida tashkil etilgan hatti harakat, iroda sifatlarining kamol topish asosida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonchi ham muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya pedagogik kategoriyadir. Har bir fan o'zining tushunchalari, qonuniyatlari, prinsiplari qoidalari sistemasiga ega. Fanning mohiyatini ifodalovchi eng muhim, asosiy tushunchalarni kateygoriya deb ataydilar. Pedagogika tarbiya haqidagi fan bo'lganligi uchun keng pedagogik tarbiya, shuningdek unga kiruvchi ma'lumot, o'qitish va ancha tor ma'nodagi tarbiya uning asosiy kategoriyalaridir.

Sotsial ma'nodagi "tarbiya" tushunchasi insonning tevarak - atrofidagi sotsial sharoitlar, inson yashayotgan ijtimoiy tuzumning unga ta'siri sifatida tushuniladi.

Tarbiya haqida unga keng pedagogik ma'no bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim - tarbiya muassasalari sistemasida amalga oshiriladigan butun o'quv tarbiya protsessini biror maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashkil etilish tushuniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan tarbiyaning maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga hamda Vatan xizmati va himoyasiga tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat.

Tor ma'nodagi tarbiya so'zi "tarbiyaviy ish" tushunchasiga tengdir. U tarbiyaviy ishda e'tiqod, axloqiy, estetik sifatlar, did, ijtimoiy axloq normalarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi.

Ta'lim - shunday bilish jarayoniki, unda o'quvchilar (bilim

oluvchilar), o'qituvchilar (bilim o'rgatuvchi) rahbarligida ilmiy bilimlar bilan qurollanadilar, dunyoqarashlarini shakllantiradilar, ma'naviy-axloqiy salohiyatlarini yuksaltiradilar, aqliy (intelektual) va jismoniy kuchlarini rivojlantiradilar.

Ilm olish va ta'lim berish.

Ilm olish deganda ilmiy bilimlar hamda bilishga oid malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab olish natijasi va ularni egallash protsessi tushuniladi. Ular asosida shaxsning dunyoqarashi, axloqiy sifatlari tarkib topadi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi.

O'qitish o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatidan iborat bo'lgan, biror maqsadga qaratilgan protsessdir. Bu protsess davomida o'qituvchi bilim, ko'nikma va malakalar sistemasini beradi, o'quvchilar esa ularni o'zlashtirib oladilar, bu protsessda inson tarbiyalanadi va kamol topadi. Agar o'qituvchining rahbarlik roli o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashdagi aktivligi bilan qo'shib olib borilmasa o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. o'qituvchi faqat bilim berib qolmaydi, balki o'quvchilar bilish faoliyatining tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Kreativ pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxsning ijodiy taffakurini shakllantirish, kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning faoliyati davomida kreativligini oshirib borishdan iborat. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs qobiliyati, tarbiya, ta'lim(o'qitish, o'qish)ga moilligi, bilim o'zlashtirish, ko'nikma shakllantirish, yangiliklarni kuzatib borish malaka mustahkamlash, kompetensiya umumlashtirish, ma'lumot eslab qolish, yangicha fikr

shakllantirish, ta'fakkurni rivojlantirish.

Shaxs qobiliyati - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya, ta'lim(o'qitish, o'qish)ga moilligi - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Bilim o'zlashtirish- o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma shakllantirish - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka mustahkamlash - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya umumlashtirish - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot eslab qolish - ta'limtarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Yangicha fikr shakllantirish - shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish

jarayoni.

Ta'fakkurni rivojlantirish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Xullas, pedagogikaning asosiy kategoriyalari tarbiya, ta'lim, ma'lumot jarayonida o'quvchilar ma'naviy axloqiy yuksaklikning ko'tariladigan, qo'lga kiritilgan ilmiy bilimlar yordamida dunyoqarashlarini shakllantiradilar, intellektual qobiliyatlari, ijodiy tafakkurlari, aqliy faolliklarini o'qitadilar, jismoniy kuchlarini rivojlantiradilar.

Nazorat savollari:

1. "Kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. "Kreativ pedagogika"ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?
3. "Kreativ pedagogikaning" ob'ekti va predmetini nima tashkil etadi?
4. "Kreativ pedagogikaning" asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. "Kreativ pedagogika" qanay fanlar bilan o'zaro aloqadorlikdarivojlanadi?
6. Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llaniladi?
7. Ta'limga ijodiy yondoshishni tushuntiring

2. § KREATIV TA'LIM MUHITI, MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

2.1. “KREATIV TA'LIM MUHITI” TUSHUNCHALARINING MOHIYATI.

Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayërgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Demak, zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innavotsion yo'nalishi ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi.

Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi. Doimiy o'zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-

iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi inson ontogenezing butun davri - tug'ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzluksizlik va qamrab olishni talab qiladi.

Mahalliy pedagogikada shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy va ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha nazariy ma'lumotlar o'rganilmoqda.

An'anaviy professional tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning birlashuvi sifatida aniqlanadi. Bu faoliyatni o'zlashtirish jarayonida tajribaning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lishini anglatadi. Ijodiy faoliyat tajribasini o'rganish masalasi fanda davrlar kesimida rivojlanmoqda.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har ¹bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishlar majmuyi hisoblanadi.

Kreativlik qobiliyati nima ? "Ijodkorlik - bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq o'ziga xos fikrlash faoliyati modeli", "Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur", "Ijodkorlik - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zagartirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir" kabi ta'riflar

ijodkorlikning o'ziga xos mohiyati haqida ochib berilgan.

O'qituvchi kreativligi (ijodkorlik) - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. "Pedagogik ijodkorlik" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur: 1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o'quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

Texnologiya va ixtirolar tarixini o'rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi yuqori (o'z davri uchun) fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma'lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo'lishgan. Ingliz psixologi E.P.Torrens kreativlikni quyidagi jihatlarini ilgari surgan: - muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; - taxminlarni tekshirish va o'zgartirish; - qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; - muammoni hal qilishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qaramaqarshiligiga nisbatan sezgirlikni ifodalash.

Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni va o'z ichiga oladi. Ijodiy shaxsning shakllanishini amalga oshirilgan ijodiy faoliyatga va

olingan ijodiy natijalarga mos keladigan shaxsning shakllanishi va rivojlanishi deb ta'riflash mumkin. Bu jarayonning sur'ati va traektoriyasi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning o'z faoliyati va ijodiy fazilatlari, shuningdek, sharoitlar, hayotiy voqealar va kasbiy jihatdan aniqlangan omillar bilan belgilanadi.

Ijodkor shaxsni shakllantirish va ijodiy ta'lim o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjuddir. Asosiy qism. Ijod madaniyat singari, inson hayotiga, demak, ta'lim tizimiga ham kirib borishi kerak. Binobarin, ijodiy pedagogikaning ijtimoiy fanlari tizimida ya'ni pedagogikaning yangi tarmog'i sifatida rivojlanishi uchun qator shart-sharoitlar mavjud. Kreativ pedagogika - bu ijodiy ta'lim fani va san'atidir. Bu pedagogikaning majburlash pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga qarama-qarshi bo'lgan pedagogikaning bir turi hisoblanadi.

Kreativ pedagogika o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, kelajagini yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadi. Kreativ pedagogika, har qanday fanga, xoh matematika, xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo'lsin, qo'llanilish mumkin bo'lgan pedagogikadir. Ma'lum darajada aytish mumkinki, uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini o'zgartiradi. Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir.

U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketmaketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi; Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy

maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi. Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatining ustuvor yo'nalishi. muloqotning dialogik usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyatga beriladi. Bularning barchasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda atnashishni o'rganadilar.

Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil

etiladi, ilmiy- tadqiqot loyihalari, rolli o'yinlar qo'llaniladi.[1]
Kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat

Ta'lim muhiti - moslashuvchanlik, ya'ni ta'lim tuzilmalarining shaxs, atrof- muhit va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga muvofiq tezda qayta qurish qobiliyati:

- ✓ -uning tarkibiy elementlari faoliyatida o'zaro ta'sir va uzluksizlik orqali ifodalangan uzchillik;
- ✓ -aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq rivojlanayotgan muhitning o'zgarishini nazarda tutadigan o'zgaruvchanlik;
- o -uning tarkibiy tuzilmalarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish orqali ta'lim muammolarini hal qilishni ta'minlaydigan integratsiya;
- ✓ -barcha ta'lim sub'ektlarining boshqaruvda keng ishtirok etishini, ta'lim, tarbiya va o'zaro hamkorlik shakllarini demokratlashtirishni ta'minlovchi ochiqlik;
- ✓ -o'quvchilarning ko'zidan yashiringan o'qituvchining alohida pozitsiyasi sifatida pedagogik yordam asosida amalga oshiriladigan o'quv jarayonining barcha sub'ektlarining birgalikdagi faol muloqotiga o'rnatish.

Atrof-muhit bo'lajak o'qituvchilarni kreativ sifatlarini shakllantirishning muvaffaqiyatli sharti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu jismoniy, ma'naviy, hissiy, estetik, intellektual

salomatlik, intizom , intizomni saqlash va takomillashtirish orqali ta'lim, ta'limning har tomonlama uyg'un rivojlanishi mavjud bo'lgan muhitdir. Majburiyat, improvizatsiya qilish, kreativ fikrlash, o'zini takomillashtirish, qiziqarli bo'lgan hamma narsani o'z zimmasiga olish qobiliyatidir.

Kreativ ta'lim muhitining asosiy talablari.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;

– xayol qila olish (fantaziya).

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi:

- **Iste'dodning kreativligi**
- **Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi.**

Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi –

ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta‘lim, kamolotga intiluvchanlik”. A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya‘ni barcha insonlardagi tug‘ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma‘lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi, deb hisoblaydi.

T.A. Barisheva va Yu.A. Jigalovalar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta‘lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi [3. 129]. Shuningdek, kreativlikning mezonlari Dj.P. Gilforda, E.P. Torrans tomonidan belgilangan:

- ravonlik: ma‘lum bir vaqt oralig‘ida ko‘plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- o‘ziga xosligi: aniq, taniqli, umume’tirof etilgan, oddiy yoki qat’iy belgilanganidan farq qiluvchi g‘ayrioddiy, nostandart g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- sezuvchanlik: g‘ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o‘tishga tayyorlik;
- mo‘tadillik: g‘ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo‘lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko‘rish qobiliyati;
- rivojlanish: paydo bo‘lgan g‘oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;
- to‘xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko‘rsatish, ya‘ni

muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko'rsatish.

- noaniqlik: stimuldan mustaqil mantiqiy reaksiyagacha bo'lgan qobiliyat; “nomlash”ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati, aslida, ahamiyatga ega bo'lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qobiliyati (“nomlash” jarayoni mufassal shaklni, muammoning mohiyatini ko'rish qobiliyatini, og'zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi);

- ko'p vazifalilik: bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati;

- samaradorligi: mahsulotning yaroqliligi, ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo'lishi haqidagi idrok;

- mamnuniyat: kreativlikning natijasi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati; ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida, to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura

olish va masala yechiminining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

Prognoz, bashorat qila olish esa o'z sohasi rivojidagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko'tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o'zgarishi hamda mazkur o'zgarishlarning sohaga bo'lgan ta'siri, narxlarning ko'tarilishi, pasayishi va b. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta'lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir ta'lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish;

o'quv jarayonini ta'lim oluvchi shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– ta’lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1.	<i>Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi.</i> Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.
2.	<i>Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi.</i> Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.
3.	<i>Kreativlik, novatorlik bosqichi.</i> Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

2.2. KREATIV PEDAGOGIK DOLZARBLIGI

Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta'lim oluvchilarning faolligi, ijodkorligi, tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilgan pedagogik eksperimentlarni loyihalash, tashkil etish va o'tkazishning zamonaviy shakl va metodlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi bugungi zamon talablari asosida ta'lim tizimini isloh qilish, pedagogika sohasida ilg'or innovatsiyalar, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilishi va ularni keng joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli bo'lajak mutaxassislarning pedagogik muammolarni qiyosiy taqqoslash, tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'qitish metodlarining optimal variantlarini tanlash asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish orqali pedagogning kreativlik potentsiali darajasini oshirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Ta'lim sifatini ta'minlash - bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan.

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantiradi. Ta'limni modernizatsiyalashdan maqsad ta'limning taraqqiyotini ta'minlash, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim.

Bunday taraqqiyot tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- davlat tomonidan to'liq ta'lim olish huquqini ta'minlanishi;
- ta'lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlash;
- ta'limning xuquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni yangi resurslarini aniqlash va jalb etish;
- pedagog kadrlarning kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va rag'batlantirish;
- ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini keng joriy etish;
- fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi konsorsiumni

rivojlantirish;

-uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning kreativ ko'nikmalarini, intellektual sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish va boshqalar.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so'zi (inglizcha "create" – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.

Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ o'qituvchi bo'lish – bugungi ta'limiy faoliyatda fzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa o'qituvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, ta'limda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig'ishga asoslanganligi tufayli an'anaviy ta'lim sistemasi har doim ham o'qitishda kreativ yondoshuvga asos bo'la olmaydi. Bu holat shaxsga yo'naltirilgan ta'limning, xususan talabaning kreativlik qobiliyatini

rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko‘pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi uchun faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo‘lishi lozim.

2.3. KREATIV TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Ta’lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta’lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta’lim – ta’lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslangan o‘qitish metodlari tizimidir. Bunda o‘zaro harakat ta’lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o‘rnatish kabi tamoyillarga tayanadi. Demak, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta’lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o‘qituvchilar, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, quyida ayrimlarini keltirib o‘tish mumkin:

- kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayonida izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish;

- ta’lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

– ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

– ta’lim oluvchilarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo‘naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘zo‘zini bilish, o‘z mavqeyiga ega bo‘lish, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

– ta’lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma’lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;

- keyslar bilan ishlash;
- guruhiiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;

- o‘quv loyihalarini tayyorlash;

- portfoliolarni shakllantirish;

- kastinglar uyushtirish;

- to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va hokazo.

Ta’lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik

darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud: kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi; kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi; kreativ sifatlarning shakllanganligi; amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish; ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin.

Kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N. Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan "kompetensiya" atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996-yil) "kompetensiya" tushunchasi "uquv", "kompetentlik", "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999- yil) ta'lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv e'tirof etildi. G.V. Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mavjud:

- insonning umumiy kompetentligi (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va h.z.);
- faoliyat turlari bo'yicha kompetentlik (mehnat, o'quv, o'yin, kasbiy va boshqalar);
- faoliyat yo'nalgan obyektlar bo'yicha kompetentlik (inson-inson, inson- texnika, inson-tabiati, inson-badiiy timsol va h.z.);
- ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha kompetentlik (maishiy, fuqaroviy, madaniy va boshqalar);
- ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda); – ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa va boshqalar);
- qobiliyatlar bo'yicha kompetentlik (pedagogika, psixologiya, ijtimoiy, ijodiy, texnik va boshqalar).

Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagogning ish sohasi bo'yicha kompetentligi
- uzluksiz ta'lim tizimini o'z ichiga oladi;
- ixtisoslik bo'yicha kompetentligi
- o'qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta'limi o'qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;
- pedagogning faoliyati yo'nalgan obyekt bo'yicha kompetentligi
- talabalar, otaonalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar;
- pedagogning faoliyati turi bo'yicha kompetentligi motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, informatsion, kommunikativ, refleksiv,

prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion va boshqalar.

A.V. Xutorskiy o'qituvchining quyidagi kompetensiyalarini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asosida, ya'ni qadriyat va o'zini anglash – o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiyao'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olish va talaba yoshlarga tushuntira olish.

3. O'quv va bilish jarayoni – o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi, o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmalarini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish – pedagogik faoliyat va o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, amoda o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy – foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7. O'z ustida ishlashi – jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-turli axborot manbalari, shu jumladan, ta'lim muassasasidan

tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar:

- ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a'zosi rolini bajarish);

- mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini, o'zini o'zi uyushtirish ko'nikmalarini baholash va takomillashtirish);

- maishiy sohadagi kompetensiyalar (shu jumladan, oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

- madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, shaxsning ma'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish). O'qituvchi kompetensiyasi – uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy individual, ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo'lishidir. Ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri bu – o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi.

Bular: ilmiy bilish; gnoseologik bilish; pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish; har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy-kreativ yondashish; ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish; o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o'rganish va ichki psixologik

zaxirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish; jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: – o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; – yangi axborotlarni o'zlashtiradi; – davr talablarini chuqur anglaydi; – yangi bilimlarni izlab topadi; – ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi .

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-seminar (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar .

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning

muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassisleri kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P. Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Talaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanoatlantirishi lozim. E.P. Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi: – muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; – farazni tekshirish va o'zgartirish; – qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; – muammo yechimini topishda bilim va seminar harakatlarning o'zaro qaramaqarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, bitiruv ishi doirasidagi "kreativlik", "kreativ qobiliyat", "pedagogik kreativlik", "interfaol o'qitish", "interfaol o'qitish sharoiti", "talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish" kabi asosiy tushunchalar mohiyati ochib berildi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlar xos?
2. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo'lishi zarur?
3. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?
4. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?
5. Shaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?
6. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?
7. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining tarkibiy asoslarini nimalardan iborat?
8. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday mezonlar yordamida aniqlanadi?
9. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday darajalarda namoyon bo'ladi?

3. § DIDAKTIK TA'MINOTNI YARATISHDA KREATIV YONDASHUV

3.1. DIDAKTIK TA'MINOTNI YARATISHGA KREATIV YONDASHISH IMKONIYATLARI

Bugungi kunda jaxonning ilg'or mamlakatlari qatori respublikamizda ham ta'lim tizmini islox qilishga katta e'tibor berilmoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, talim tizmining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jaxon miqyosdagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi. Ta'lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti, bolalarning tarbiyasi, ta'limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo'nalganligi bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga mos yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi va bunda pedagoglarning faolligi, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik ta'minotni yaratishga kreativ yondashish o'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashish. Kreativ yondashuv quvidagi manbalari Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralashda kreativ yondashuvning ahamiyati. O'quv axborot (ma'lumot)larini samarali izlash- pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini ko'rsatuvchi muhim holat ekanligi. Mavzu

mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy maznun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish mezonari. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

Didaktika (qadimgi yunoncha: *διδασκικός*, *didaktikos* — „o'rgatuvchi“, „ta'lim beruvchi“) — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. „Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining „Buyuk didaktika“ asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o'zining „Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun yo'riqnoma“ (1834—35) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so'ngi va 20-yuzyillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta. Uzoq vaqt mobaynida ko'plab kommunistik davlatlarda marksizm-leninizm didaktikaning taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi

metodologik asos deb qarab kelindi. Lekin mazkur ta'limotning ilmiy asoslari puch, jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'g'ri hamda xolis ko'rsatish imkoniyatidan mahrum bo'lgan tarafkash (tendensioz) qarash ekanligi ma'lum bo'lgach, unga tayanish mumkin bo'lmay qoldi. Keyingi vaqtda ko'plab musulmon davlatlarida kalom falsafasiga milliy didaktikaning metodologik asosi sifatida qaralmoqda.

Chunki olamning yaralish, rivojlanish qonuniyatlari, insonning bilish imkoniyatlari, ma'rifatning shaxs kamolotidagi, o'zini anglash borasidagi o'рни singari jihatlar ana shu falsafiy asosga tayanilgandagina tushunarli tarzda izohlanishi mumkinligi anglab yetildi. Kalom falsafasi ta'lim olamni bilishning vositasi ekanligini, bilish jarayonining cheki yo'q, ammo inson bilishi mumkin bo'lgan bilimlar cheklanganligini ko'rsatishi bilan diqqatga sazovordir.

Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o'qitish metodikasi maktab amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy

xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon ped. taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday hislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shu kuriy, A. Ibodiyev, M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Saidazizov, R. Yusufbekov kabi ma'rifatparvar- pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning kad. shonu shuxratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'kligini to'g'ri belgiladi. Jahon pedagogikasining eng so'nggi yutuklaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik

asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta'limni uyushtirishning amaliy jihatlari bilangina shug'ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik karashlari ularning ko'plab pedagogik asarlari, darelik va qo'llanmalarida aks etgan.

Turkistonda Okt. to'ntarishi tufayli qaror topgan sho'rolar zamonida didaktika avtoritar ped.ning bir tarmog'i sifatida deyarli hamisha tarbiyaga qarshi qo'yib kelindi. Milliy tajribalarga tayanmagan, ta'lim jarayonining mazmunini yangilashga qobil bo'lmagan, maktab didaktikasini mafkura zug'umidan xalos eta olmagan sotsialistik ped. uning tashqi jihatlarini pardoqlab, yaltiratib ko'rsatishga alohida e'tibor berdi. Turli-tuman usullar o'ylab topildi, ko'pdan-ko'p „ilg'or“ tajribalar yoyildi. Lekin ta'limda kutilgan samaraga erishilmadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishtandan so'ng o'zbek ped. fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda didaktikaning tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o'zgarishi pedagogik tafakkurning sog'lomlashuviga, u esa, o'z navbatida, didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy didaktikaning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning insoniylashuvidir. Mazkur tamoyil ta'lim jarayoni uchun bilim emas, balki o'quvchi shaxsi asosiy kadriyat ekanligini anglatadi.

Bunda o'quvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o'rin beriladi.

Ta'limning insonparvarlashuvi tamoyili o'zbek didaktikasining asosiy talablaridan bo'lib, ta'lim mazmo'nini belgilash va pedagogik amaliyotni tashkil etishda shaxs ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlariga ustuvor ahamiyat berilishini kuzda tutadi. Estetik, badiiy turkumdagi predmetlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish yo'li bilan bolalarning hissiyotini shakllantirishga erishish, ularda iroda xususiyatlarini tarkib toptirish muhimdir. O'quvchi ma'naviyati bilan uning o'zlashtirishi o'rtasida uzviy aloqa borligi zamonaviy psixologiya fani tomonidan asoslab berilgan. Bu holatni hisobga olmay ish ko'rgan ped. muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur. Milliy didaktika taraqqiyotini ta'minlaydigan tamoyillardan yana biri ta'limning yaxlitligidir. Dunyodagi narsa-hodisalar yaxlit va bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekan, uni urganish ham imkon qadar yaxlit tarzda amalga oshirilishi kerak.

Ta'lim jarayonida o'quv predmetlari miqdorini ko'paytirish emas, balki olamni bilish vositasi bo'lmish o'quv fanlarini imkon qadar umumlashtirish yo'lidan borish lozim. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonning yangilangan o'quv rejalarida ta'limning asosiy yetti tarmog'i belgilangan bo'lib, o'quv fanlari miqdorini zaruratga qarab o'zgarib turishi ko'zda tutilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning alohida jihatlarini hisobga olish ham didaktikaning asosiy tamoyillaridan sanaladi. U o'qitish jarayonini har bir o'quvchiga xos xususiyatlarni ko'zda tutgan holda tashkil qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, har qanday shaxs muayyan geografik muhitda shakllanadi. Uning tabiatida o'sha muhitga xos jihatlar muhrlangan bo'ladi.

Shuning uchun ham o'qitish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarni

hisobga olish tamoyili ham didaktikaning zarur talablaridan biridir. O‘zRning „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da mazkur tamoyilga alohida e‘tibor qaratilgan. Tarbiyaning ustuvorligi ham bugungi o‘zbek didaktikasining asosiy tamoyillaridan sanaladi. Komil shaxsni tarbiyalash har qanday ta‘lim muassasasining asosiy vazifasiga aylandi. Ma‘naviyatni shakllantirish maksad darajasiga ko‘tarilgan sharoitda tarbiyaga ustuvor maqom berilishi tabiiydir. Milliy didaktika o‘quvchilarni ta‘lim jarayonining ishtirokchilarigina emas, balki ijrochilari deb qarashni ham ko‘zda tutadi. Ta‘lim o‘quvchilarning ichki ehtiyojiga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib bo‘lmaydi.

Didaktika ta‘lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O‘qituvchi biror predmet bo‘yicha o‘quvchilarning tizimli bilim olishini ta‘minlash maqsadi sari intilar ekan, ma‘lum ishlarning bajarilish namunasini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, u ta‘limning barcha bosqichlarida uquvchining faolligi va mustaqilligini ta‘minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o‘zlashtirishlari, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llashlari uchun maxsus topshiriklar beriladi.

3.2. KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHNING DIDAKTIK TA‘MINOTNI YARATISH MEXANIZMLARI

O‘qitish samaradorligiga erishish uchun o‘qitishning didaktik ta‘minotini yaratish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta‘minotni yaratish mexanizmlariga kreativ yondashuvni tashkil etish o‘quvchilarni tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlash va aniq

ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishlarini amalga oshiradi.

Kreativ o'zi nima? Creato lotincha so'z bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik ma'nolarini anglatadi. Bir qarashda ta'lim jarayonini kreativ g'oyalar asosida tashkil etish o'quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdek tasavvur qoldiradi. Biroq, kreativlik, ijodiy yondashish o'quv mashg'ulotlarini mavjud Davlat ta'lim standartlari (DTS) ga moslashtirish, qolaversa, o'qituvchilardan o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg'ulotlarni metodik jihatdan samarali, to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan ta'lim mazmunini shakllantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

3.2.1. umumiy nazariy bosqich;

3.2.2. o'quv bosqichi;

3.2.3. o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi.

O'quv materialini o'zlashtirish bosqichida ta'lim mazmunining o'quv modul (fan)lari bo'yicha yaratilgan DTS, o'quv rejasi va o'quv dasturi kabi meyoriy hujjatlar, shuningdek, o'quv manbalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma va shu kabilar)da aks etishni ta'minlanadi. Ta'lim mazmuni quyidagi davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari mazmunida namoyon bo'ladi.

Davlat ta'lim standartlari – umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan meyoriy hujjat. O'quv rejasi meyoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetning mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar

hajmi ko'rsatib beriladi.

Ta'lim mazmuni o'quv dasturlarida yanada batafsil yoritiladi. O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqt, muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma- ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi meyoriy hujjat. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarning o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi mezonlar sanaladi. Pedagoglarda ham kreativlik sifatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi o'quv dasturlari bilan ishlashda ham ko'zga tashlanadi.

Mualliflik o'quv dasturlari:

1) o'quvchilarning ehtiyoji, qiziqishi, xohishistaklarini inobatga olgan holda o'quv moduli (fani) doirasida muayyan mavzu (masala)ni chuqur o'rganish yoki ma'lum muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan o'quv dasturi;

2) o'quv dasturlarining bir turi.

Bu turdagi dasturlar ham DTS talablarini hisobga olgan holda o'quv fani qurilishining o'zgacha shaklda bo'lishi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan muallif nuqtai nazarining aks etishi bilan boshqa o'quv dasturlaridan farqlanadi. Bu turdagi dasturlar tegishli fan sohasi bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi taqrizlariga ega bo'lishi va ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlari tomonidan tasdiqlanishi zarur. Mualliflik o'quv dasturlarini ishlab chiqishda pedagog erkin, mustaqil ravisha o'zining kreativlik layoqatini to'la namoyon etish imkoniyatiga

ega.

Odatda mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy yoki maxsus) kurslar tashkil etishda, to'garaklar, ilmiy jamiyatlar, «Fan klublari», texnik va badiiy ijodiyot markazlari faoliyatida samarali qo'llaniladi. Qolaversa, o'quv fanining mazmunini shakllantirishda har bir pedagog 15 foiz miqdorda ijodiy yondashgan holda unga o'zgartirish kiritish imkoniyatiga ega. Binobarin, o'quv dasturlarining innovatsion, kreativ xarakter kasb etishi o'quvchilarda ta'lim olishga qiziqishni kuchaytiradi, ularning o'quv-bilish faoliyatining faollashuvini ta'minlaydi. Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi. O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi.

Darslik – muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilarning ehtiyojlarini qondira olishi, qiziqishini oshirishi, bilim, ko'nikma va malakalarini boyitishi zarur. Darslikda bayon etilayotgan o'quv axborotlari lo'nda, tushunarli va vizual bo'lishi, o'quvchilarning estetik ehtiyojlariga mos kelishi kerak.

Darslik barqaror, puxta asoslangan tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi lozim. Darsliklarga qo'yiladigan talablar turlicha bo'lsa-da, ular orasida umumiy xususiyatga ega talablar ko'p. Yetakchi xorijiy mamlakatlarda

muqobil darsliklarning nashr etilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning boisi, pedagog va o'quvchilarga ular orasidan o'zlari uchun eng maqbul, amaliy ahamiyatga ega bo'lganlarini tanlab olishga imkoniyat yaratishdir.

Respublikamizda muqobil darsliklarni yaratishda faollik bir qadar sust bo'lgani holda muqobil yordamchi adabiyotlar (o'quv, metodik va o'quvmetodik qo'llanmalar)ni yaratish borasida pedagoglar faollik ko'rsatishmoqda. Ta'lim mazmuni o'quv material darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, ma'lumotnomalar, matematika, fizika, kimyo bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi.

O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish)³. Kreativlik o'quv-bilish faolligi sifatida ham tahlil etilishi mumkin. Binobarin, ba'zi o'quvchilar tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlashni, boshqalar esa aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishni afzal ko'radi, uchinchi guruh vakillari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo'ladi. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativligi yana bir holatda – elektron axborot-ta'lim resurslari (EATR)ni yaratishda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

EATR – o'quv fan (modul)lari bo'yicha tizimlilik, izchillik, o'zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o'quv materiallarini to'liq yoki qisman qamrab olgan holda kompyuter texnologiyasi yoki internet axborot tarmog'ida maxsus (alohida) saytda joylashtirilgan elektron nashrlar majmui.

EATR ta'lim jarayonida quyidagi imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun talab etiladigan sharoitni yaratadi:

- 1) ta'limiy vazifalarni shakllantirish;
- 2) o'quv materialini mazmunini bayon qilish;
- 3) bilimlarni qabul qilishni tashkil etish;
- 4) qaytar aloqa;
- 5) o'quvchilarning bilish faoliyatini nazorat qilish;
- 6) o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning navbatdagi bosqichiga tayyorgarlik ko'rish (o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga, qo'shimcha o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qibo'rganishga yo'naltirish).

Ta'lim jarayonidagi kreativlik o'quvchilarda o'qishga qiziqishlarini orttiruvchi kreativ savollar tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, ramziy ifodalardan foydalanish, ta'lim oluvchilarga bayon etilayotgan o'quv axborotlari bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan g'oyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlilikni topish kabi vazifalarni berish, kichik kichik guruhlarda ishlashlarini ta'minlash kabi harakatlarda aks etadi.

O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning kreativ fikrlashlariga erishish, o'quv-bilish faoliyatlarida ijodiy mahsulotlarni yaratishlarini ta'minlashga undash, rag'batlantirish qanday natijalarga olib kelgan bo'lardi?

Xuddi shu holat o'qituvchilar izlayotgan hodisa bo'lmasmidi?

Ma'lumki, ta'lim mazmunini ochib berishga yo'naltirilgan o'quv materiallari bir nechta turga ajratiladi.

Ular:

- matnli bosma o'quv axboroti;

- vizual bosma o‘quv axboroti;
- matnli elektron o‘quv axboroti;
- vizual elektron o‘quv axboroti;
- ish qog‘ozlarida ifodalanadigan bosma o‘quv axboroti;
- ish qog‘ozlarida ifodalanadigan elektron o‘quv axborotlar.

O‘quv materiallari o‘quvchilarning umumiy va kasbiy bilimlarini boyitish bilan birga ularda dunyoqarashni boyitish, tasavvurni kengaytirish, ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobiy munosabatni shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur.

Shu sababli pedagoglar o‘quv materiallarini tayyorlashga ijodiy yondashish bilan birga muayyan tamoyillarga rioya etishlari zarur:

- g‘oyaviylik;
- ilmiylik;
- vizuallik;
- tizimlilik;
- o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi;
- o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi;
- amaliy ahamiyatga egalik;
- aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
- estetik talablarga muvofiqlik.

Ushbu tamoyillarga muvofiq tayyorlanadigan o‘quv materiallari mutaxassislik yo‘nalishi va ixtisoslik sohasidan qat’iy nazar barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘la qondira oladi. Shaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi.

O‘quv materiallarini o‘quvchilarga taqdim etishda savolning

«Agarda ...?» deb qo'yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham obyektiv, ham subyektiv fikrlash ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Kreativlik o'quvchilarda «nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang'ich g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo'lsa ulardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi. Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta'lim olish, o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan o'quvchilar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha o'quvchilar bilan jonli, qiziqarli, jo'shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo'llaniladi.

Qolaversa, kreativ xarakterga ega mashg'ulotlarni nafaqat san'at, madaniyat sohalari yo'nalishlarida, shu bilan birga barcha istalgan soha (biznes, iqtisodiyot, huquq, pedagogika, psixologiya, qurilish, qishloq xo'jaligi, muhandislik, sanoat va

b. sohalar) bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ham birdek samarali tashkil etish mumkin. O'qituvchilar, shuningdek, ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashishda nafaqat o'quv fanlarini o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan o'quvchilarga, balki ko'proq e'tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo'lmagan ta'lim oluvchilarga ham birdek e'tiborni qaratishlari zarur.

Pedagoglarning o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko'rishlari

kutilgan ta'limiy natijaning qo'lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

- aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
- o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- o'quv axborotlarining asoslanganligi;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini
- faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- o'quvchilarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
- o'quvchilarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo'lishi;
- noaniq tushuncha va iboralardan holi bo'lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyatiga egalik;
- mavjud bilim, ko'nikma, malakani mustahkamlashga xizmat qilishi.

O'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o'quv manbalari (darslik, o'quv, metodik va o'quv-metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma'lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o'rinda olingan ma'lumotlarning ishonchliligi muhim.

Shu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o'quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e'tiborni qaratishlari zarur.

Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar o'quvchilarning umumiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Demak, pedagoglarning o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari o'quvchilarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog'liq. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashishlari talab etiladi.

Bunda ular o'quv materiallarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishi o'quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. O'quv mashg'ulotlar uchun (ya'ni dars uchun) didaktik ishlanmalar tayyorlashda ham pedagoglar quyidagi kreativlik mexanizmlarini inobatga olishi zarur (1-jadval).

Kreativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik ta'minotni yaratish mexanizmlarini amalga oshirishda quyidagilarni xulosa qilamiz:

– o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o'quv manbalari (darslik, o'quv, metodik va o'quv-metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish

daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma'lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari;

1-jadval. Darsda o'quvchilar kreativlik imkoniyatlarini shakllantirish mexanizmi.

O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish mexanizmi	
O'quvchilarni	- qiziqarli; - murakkab vazifalar;
	- aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash.
O'quvchilarga	- kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - «qutqarib» qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish.
O'quvchilarni	- suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish.
O'quvchilar	- o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish.

– didaktik materiallarni tayyorlashda o'quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e'tiborni qaratishlarini;

– o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor berishi va dars jarayonda «o‘qituvchi sinfda kreativlik muhitini yaratilishini;

– o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlar o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga oid savol topshiriqlarni tuzishni.

– didaktik o‘quv materiallarini samarali shakllantirishda g‘oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni inobatga olishni;

– o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo‘naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni

inobatga olishni o‘quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini.

Nazorat savollari:

1. O‘quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashuv o‘zida nimani ifodalaydi?
2. O‘quv manbalarini yaratishga kreativ yondashishda nimalarga e‘tibor qaratish lozim?
3. O‘quv materiallarini kreativ yondashuv asosida tayyorlash qanday ahamiyatga ega deb o‘ylaysiz?
4. O‘quv materiallarini kreativ yondashuv asosida samarali tayyorlashda qanday tamoyillar inobatga olinadi?
5. O‘quv mashg‘ulotlar uchundidaktik ishlanmalar tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar nimalarda iborat?

4. § BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIV TASAVVURINI RIVOJLANISHI VA PEDAGOGIKADA ILMIY IJODKORLIK.

4.1. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va

ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, quyida ayrimlarini keltirib o'tish mumkin:

- kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o'quv jarayonida izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish;

- ta'lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

- ta'lim oluvchilarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeyiga ega bo'lish, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

- ta'lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;

- keyslar bilan ishlash;
- guruhli ish shakllari va debatlarini tashkil etish;
- o'quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyushtirish;
- to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish va hokazo.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud: kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi; kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi; kreativ sifatlarning shakllanganligi; amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish; ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar.

Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib, o'qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab

topish layoqatidir.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy).
2. Axloqiy (o‘z-o‘zini boshqarish).
3. Motivatsion (maqsadli).
4. Emotsional (his-hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Kreativ maqsad.
2. Ijodiy intilish.
3. Kreativ (ustanovka) qurish.
4. Kreativ yo‘nalish.
5. Kreativ ifodali akt.
6. Kreativ o‘z-o‘zini boshqarish.
7. Kreativ faollik.
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O‘qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

4.2. PEDAGOGIKADA ILMIY IJODKORLIK FAOLIYATI

Kreativlik o‘qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo‘nalishi va o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi va uni o‘zining faolligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o‘sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi

sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim amerikalik tilshunos N. Xomskiy (1965-yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan “kompetensiya” atamasining umumiy ma’nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo‘yicha Bern shahrida bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996-yil) “kompetensiya” tushunchasi “uquv”, “kompetentlik”, “qobiliyat”, “mahorat” singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999- yil) ta’lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv e’tirof etildi.

G.V. Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mavjud:

- insonning umumiy kompetentligi (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va h.z.);
- faoliyat turlari bo‘yicha kompetentlik (mehnat, o‘quv, o‘yin, kasbiy va boshqalar);
- faoliyat yo‘nalgan obyektlar bo‘yicha kompetentlik (inson-inson, inson- texnika, inson-tabiati, inson-badiiy timsol va h.z.);
- ijtimoiy hayot sohalari bo‘yicha kompetentlik (maishiy, fuqaroviy, madaniy va boshqalar);
- ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo‘yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda);
- ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa va boshqalar);
- qobiliyatlar bo‘yicha kompetentlik (pedagogika, psixologiya,

ijtimoiy, ijodiy, texnik va boshqalar).

Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yoʻnalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- pedagogning ish sohasi boʻyicha kompetentligi – uzluksiz taʼlim tizimini oʻz ichiga oladi;

- ixtisoslik boʻyicha kompetentligi – oʻqituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb taʼlimi oʻqituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;

- pedagogning faoliyati yoʻnalgan obyekt boʻyicha kompetentligi – talabalar, ota-onalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar;

- pedagogning faoliyati turi boʻyicha kompetentligi motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, informatsion, kommunikativ, refleksiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion va boshqalar.

A.V. Xutorskiy oʻqituvchining quyidagi kompetensiyalarini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asosida, yaʼni qadriyat va oʻzini anglash – oʻqituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bogʻliq ravishda namoyon boʻladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini koʻra oladi va tushunadi, bunga oʻzini yoʻnaltiradi, pedagog sifatida oʻz fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya- oʻqituvchining oʻquv va boshqa faoliyatlaridagi oʻz-oʻzini anglash mexanizmini taʼminlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega boʻlish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-

odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nimalarga ega bo‘lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olish va talaba yoshlarga tushuntira olish.

3. O‘quv va bilish jarayoni – o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi, o‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmalarini tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo‘lish – pedagogik faoliyat va o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi

5. Muloqotchanlik – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. Ijtimoiy – foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi – jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-turli axborot manbalari, shu jumladan, ta’lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar:

- ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a’zosi rolini bajarish);

- mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o‘zining kasbiy imkoniyatlarini, o‘zini o‘zi uyushtirish ko‘nikmalarini baholash va takomillashtirish);

- maishiy sohadagi kompetensiyalar (shu jumladan, oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

– madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, shaxsning ma’naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish).

O‘qituvchi kompetensiyasi – uning nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakasi, dunyoqarashi, e’tiqodi va barcha shaxsiy individual, ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo‘lishidir. Ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri bu – o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishidir.

U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon

bo‘ladi. Bular: ilmiy bilish;

gnoseologik bilish;

pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;

har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy- kreativ yondashish;

ta’limiy, tarbiyaviy ta’sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;

o‘zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o‘rganish va ichki psixologik zaxirasidan samarali foydalanish orqali o‘zini muttasil rivojlantirish;

jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo‘lish ijobiy pozitiv fikrlashga o‘tish tajribasidan iborat.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

– o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;

– yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;

– davr talablarini chuqur anglaydi;

- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi .

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-seminar (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta’minlovchi (protsessual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar .

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo‘lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko‘p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o‘z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi.

Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar

ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P. Torrens tomonidan 1987- yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

alaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanoatlantirishi lozim. E.P. Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va seminar harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, bitiruv ishi doirasidagi “kreativlik”, “kreativ qobiliyat”, “pedagogik kreativlik”, “interfaol o‘qitish”, “interfaol o‘qitish sharoiti”, “talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish” kabi asosiy tushunchalar mohiyati ochib berildi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bo‘lajak o‘qituvchilardan nafaqat ma’lum bilimga ega, balki savodli, bu bilimlarni fanning turli sohalarida qo‘llay oladigan, g‘ayrioddiy tafakkur va ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan shaxs sifatida hayotga qadam qo‘yishni taqozo etadi. Zamonaviy o‘qituvchini ham kasbiy, ham kreativ shaxs sifatida

tayyorlashning yangi pedagogik asoslarini ishlab chiqish asosiy muammolardan biridir. Shunday ekan talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashning ma'nosini uning kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish sifatida tushunish zamonaviy ijtimoiy rivojlanish sharoitida o'qituvchining pedagogik ishining rolini oshiradi. Kreativ kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lajak o'qituvchining ijodiy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini ta'lim faoliyatida qo'llashga real tayyorgarligini hisobga olgan holda o'qituvchi ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan. Pedagogning ijodiy faoliyati haqida to'xtaladigan bo'lsak, ijodiy pedagogik faoliyatning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari ijodiy faoliyatning ichki va tashqi sharoitlarini belgilab berdi.

Ichki sharoitlarga: – kengaytma (yangi tajribaga ochiqlik); – ichki baholash markazi – noodatiy kombinatsiyalar qilish qobiliyati.

Tashqi Ijodkorlik uchun shartlar: psixologik xavfsizlik va xavfsizlik shaxsning so'zsiz qiymatini tan olish, tashqi muhit bo'lmagan muhitni yaratish va baholash; psixologik fikr erkinligi. K.Rojers hissiyotlarni (estetik, evristik, kommunikativ, "izolyatsiya") ijodiy harakat deb hisobladi.

Bir tomondan, bu noaniqlik, qo'rqqoqlik, uyatchanlik, yolg'izlik istagi, odamlar orasida mashhur emaslik; boshqa tomondan, hukmronlik istagi, o'z g'oyalarini himoya qilishda jasorat, ijtimoiy aloqalarga bo'lgan ehtiyoj, ijtimoiy faollik, odamlar orasida mashhurlik. Bir so'z bilan aytganda, "ijodkorlik" - o'zini- o'zi

namoyon qila olish qobiliyati, hayratga tushish, yangi ma'lumotlarni o'rganish, har qanday vaziyatda favqulodda yechimlarni topish, shuningdek, yangi narsalarni kashf qilish va o'z tajribasini tahlil qilish qobiliyati. Bu shuningdek, shaxsiy o'zini-o'zi anglash shakli, dunyoga o'ziga xos munosabatini ifodalash imkoniyatidir.

Bo'lajak o'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi va ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Kreativ kompetentlik – yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Kreativ kompetentlik ko'nikmalari – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatda, aqliy jarayon bosqichlarini tez va to'laqonli amalga oshirish darajasini ifodalashi aniqlandi. Kreativ kompetentlik malakalari esa shaxsning ijodiy faoliyatni qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi. Kompetentlik ijodkorlik bilan ehtimoliy bog'liq. Bilim va ijodkorlik o'rtasida yaqin, ammo noaniq bog'liqlik o'rnatildi. yangi muammolarga qanday yondashishni biladi. Boshqa tomondan, bilim insonning stereotipik modellarni yo'q qilish va yangi yo'llarni topish

istagini cheklashi mumkin. Kreativlikning rivojlanish bosqichi – muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi shunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda bo‘lajak o‘qituvchilarda ham kreativlik sifatleri ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

Kreativ tafakkurga ega bo‘lajak pedagoglar:

- boshqa bo‘lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi;
- o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi;
- ba’zan mavzu aloqasi yo‘q yoki g‘ayrioddiy savollar beradi;
- yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;
- g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi.

O‘qituvchilarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan bir qancha malaka guruhleri mavjud.

- 1) Bilishga oid (gnostik) malakalar.
- 2) Loyihalash malakalari.
- 3) Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar; tadqiqotchilik malakalari.
- 4) Muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari.
- 5) Tashkilotchilik malakalari.
- 6) Izchillikni ta’minlovchi (protsesssual) malakalar.
- 7) Texnik-texnologik malakalar.

Quyida ushbu malakalar guruhlarining mohiyati yoritiladi:
Bilishga oid (gnostik) malakalar:

– bo‘lajak pedagoglarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligini inobatga olgan holda o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;

– zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va

tahlil qilish;

- ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;

- bo’lajak o’qituvchilar tomonidan o’quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o’zlashtirganlik natijalarini, talabalarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;

- bo’lajak o’qituvchilarning bilishga bo’lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo’yicha turli ko’rinishdagi ishlarni olib borish;

- ta’lim jarayonida turli ko’rgazmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak o’qituvchilarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g’oyalar, konsepsiyalar hamda ilg’or pedagogik tajribalar asosida o’qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunlifaoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning kreativlik ko’nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda ilg’or axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Talabalar kreativ kompetentligini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiyizlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo’naltirilgan ta’lim dasturlarini

ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malakalarini rivojlanish natijalarini baholab borish lozim.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlar xos?
2. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo'lishi zarur?
3. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?
4. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?
5. Shaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?
6. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?
7. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining tarkibiy asoslari nimalardan iborat?
8. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday mezonlar yordamida aniqlanadi?
9. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday darajalarda namoyon bo'ladi?

5. § KREATIV KOMPETENSIYA MODELINING SHAKLLANISHI

5.1. KOMPETENTLIK, KASBIY KOMPETENTLIK SIFATLARI

“Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Xo‘sh, kompetentlik nima?

Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?

Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur?

Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi. “Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi

- Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi

- fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmit qiladi.

- Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi.

Kasbiy yetuklik inson ontogenezing muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Ular quyidagilardir:

- ❖ Me'yoriy hujjatlar (o'quv fanlari bo'yicha DTS, o'quv dasturi va rejalari)ni tayyorlash; O'quv manbalari (darslik, o'quv-metodik va metodik qo'llanma, tavsiyanoma, lug'at, ensiklopediya, atlas, ish daftari va b.)ni yaratish;
- ❖ Ta'lim jarayoni va ma'naviy-ma'rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash;
- ❖ O'quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish;
- ❖ Ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo'shqin tashkil etish;
- ❖ Ilmiy-tadqiqotlarni muvaffaqiyatli olib borish;
- ❖ Ilmiy va metodik anjumanlarda faol ishtirok etish, chiqishlar qilish;
- ❖ Ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlarni chop ettirish;
- ❖ Davriy hisobotlarni topshirish, attestatsiyadan o'tish.

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay daraja ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

- Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik.
- Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. Korreksion pedagogika
- Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik.
- Pedagogik diagnostikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.
- Korreksion pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.
- Korreksion pedagogikaning kategoriyalari.

Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. Kompetentlik - bilimdonlik, kasbga moslik , malakalilik , tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish, o‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish. Kompetentlik mazmuniga ko‘ra 3 turga bo‘linadi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- pedagogning ish sohasi bo‘yicha kompetentligi uzluksiz ta'lim tizimini o‘z ichiga oladi;
- ixtisoslik bo‘yicha kompetentligi o‘qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta'limini o‘z ichiga oladi;
- pedagogning faoliyati yo‘nalgan obyekt bo‘yicha kompetentligi o‘quvchilar, ota- onalar, sinf jamoasi, sosium va boshqalar.

Standart kompetensiya - ushbu sohaga oid doimiy vazifalarni bajarish qobiliyat. Yetakchi kompetensiya kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati.

Asosiy kompetensiya- ushbu sohaga oid innovasion vazifalarni bajarish qobiliyati.

- Kasbiy kompetensiya modeli Pedagog kasbiy kompetentligi yoʻnalishlari. Pedagogik-psixologik tayyorgarlik boʻyicha:

- Ta'lim-tarbiya jarayonida qoʻllaniladigan oʻqitish shakllarining pedagogik-psixologik asoslari; psixo diagnostika usullaridan foydalanish;

- Ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari boʻyicha: ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy, madaniy qadriyatlarlardan samarali foydalanish malakasiga ega boʻlish;

- Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish boʻyicha: talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash koʻnikmalarini tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va nazariy asoslarini bilish;

- ularni oʻrganish asosida malaka va koʻnikmalarni shakllantirish. Kasbiy qadriyat Kasbiy bilim va tushuncha Kasbiy koʻnikma va malaka.

Talabalar oʻzlashtirishi monitoringini amalga oshirishga tayyorlik boʻyicha:

- talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini;
- reyting tizimini, nazorat uchun turli xil topshiriqlar tuza olish;

Oʻz-oʻzini kasbiy rivojlantirishga tayyorgarlik boʻyicha:

ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy-nazariy jihatdan

oʻzlashtirish, ularning tarixini chuqur oʻrganib, amaliyotga tatbiq etish.

Mutaxassislik bilim, koʻnikma va malakalari boʻyicha: fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va obyekti, asosiy metodlari; fanga qoʻyiladigan asosiy talablarni oʻrgatish.

Kreativlik- (ing. create taratmoq, creative- yaratuvchan) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini va mustaqil tarzda iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatdir.

5.2. O‘QITUVCHINING TA‘LIM JARAYONIDA KREATIV YONDASHUVI

Kreativ pedagogik ijodkorlik masalasi hech qachon, ehtimol, ikki asr bo‘lag‘asida hayot qo‘ygandek, bunchalik xavotirli shoshilinchlik bilan ko‘tarilmagan. Oldingi ta‘lim va tarbiya strategiyasi inson tabiati bilan chuqur kelishmovchilikka asoslangan edi.

Ta‘limdagi shunga o‘xshash holat ijtimoiy, mohiyatan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga mos keldi, lekin shaxsning o‘zini insoniylikdan mahrum qildi. Hozirgacha faoliyat ko‘rsatgan ta‘lim sohasining mahsuli qisman, ijodiy rivojlanmagan, bosh va qo‘l ishini, jamiyat ishini va boshqaruvini uyg‘unlashtira olmaydigan shaxsdir. U ijro etish uchun dasturlashtirilgan. Psixologlarning fikriga ko‘ra, ijodiy qobiliyat hozirda odamlarning 2-3 foizida to‘g‘ri rivojlangan. Bugungi odam ijrochi, u yomon oila a‘zosi, yomon ishchi, yomon fuqaro. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida sun‘iy ravishda cho‘zilgan chaqaloqlik bartaraf etilmagan. Bolalarning mustaqilligi va avtoritar tarbiyasiga e‘tiborning yetishmasligi bolalarning tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini o‘ldiradi.

Ta‘lim muassasalarining asosiy muammosi shundaki, u ta‘lim emas, balki o‘qitish maskani, shaxsni keng rivojlantirish uchun emas, balki bilimlarni tor joriy etish uchun o‘quv maydoni bo‘lib qolmoqda. 20-asrning oxirida esa muassasalarni hayotga va mehnatga tayyor bo‘lmagan odamlar tugatadi. Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabgorlarning qariyb 90 foizi tashvish va istaksizlik bilan o‘quv maskaniga boradilar. Pedagogik hamjamiyat hali ham bolalar va kattalar dunyosi o‘rtasidagi munosabatlarni shoshilinch o‘zgartirish

zarurligini anglash bosqichida, ular o'rtasida keng aloqa tizimini yaratish: oilada, bolalar bog'chasida, maktabda, kundalik hayotda. Adolat uchun shuni ta'kidlaymizki, o'qituvchi tarbiya va ta'lim tizimining asosiy figurasi sifatidagi umume'tirof etilgan maqola minimal real mazmunga ega.

Binobarin, tarbiya va ta'limdagi ijodkorlikning eng yuqori darajasi pedagogik eksperimentdir. Tajriba davomida yangi pedagogik texnologiya sinovdan o'tkaziladi va mavjud bo'lish huquqi beriladi.

Pedagogik eksperiment 20-asr oxiridagi kashfiyot emas. Garchi uning yoshi to'plangan tajriba va bilimlarni yosh avlodga o'tkazish haqida o'ylayotgan insoniyatning o'ziga mos keladigan bo'lsa-da, o'qitish va tarbiyalashda tajriba san'ati uni tashkil etish va amalga oshirish usullarini professional bilishni talab qiladi. Shuning uchun tajribalarni ta'lim sohasidagi boshqa moda sifatida ko'rib chiqish havflidir.

Eksperimental o'qituvchilar o'z g'oyalarini sinab ko'rishdan oldin, birinchi navbatda, eksperimental faoliyatning salbiy oqibatlari haqida savol berishlari va eksperimentdan zararni bartaraf etadigan kompensatsiya mexanizmlari haqida o'ylashlari kerak. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, alohida ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajriba jiddiy tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Ta'lim boshqarmasi ekspertlar kengashiga kelib tushgan materiallarga ko'ra, tajriba boshlagan o'qituvchilar har doim ham maqsadni to'g'ri belgilamaydi, gipoteza tuzmaydi, ishning bosqichlarini, samaradorligini baholash mezonlarini belgilamaydi, ishlarning dastlabki holatiga tashxis qo'yavermaydi. eksperimentning har bir ishtirokchisining funksiyalari va tadqiqotning

ilmiy-pedagogik usullari bilan kam ta'minlangan.

Pedagogik eksperiment qachon zarur? Har qanday muassasa, jamoa, maktab uch bosqichdan o'tadi: shakllanishi (shakllanishi), faoliyat ko'rsatishi (barqaror o'quv rejalari va dasturlari, darsliklar asosida o'quv jarayonini tashkil etish), rivojlanish (eski mazmun, o'qitish va tarbiyaning oldingi texnologiyasi bilan ziddiyatli), yangi sharoitlar, jamiyat ehtiyojlari). Ta'lim muassasasini rivojlanish rejimiga o'tkazish tajribani talab qiladi.

Tajriba uchun qaysi muammoni tanlashim kerak? Bu yerda siz bir vaqtning o'zida bir nechta mezonlarni yodda tutishingiz kerak:

- a) ishning u yoki bu tomonini yoki umuman ta'lim jarayonini yangilash zarurati;
- b) ta'lim muassasalari uchun mintaqa ijtimoiy rivojlanishining umumiy prognozi asosida tuzilgan ijtimoiy buyurtma;
- c) ta'lim muassasasi va uning xodimlarining hozirgi paytdagi real imkoniyatlari;
- d) eksperimentning bo'lajak ishtirokchilari shaxslarning manfaatlari.

Ta'lim muassasalarida quyidagi muammolar bo'yicha o'quv jarayoni modellarini ishlab chiqish ustida ish olib borilmoqda:

- amaldagi ta'lim muassasalari konsepsiyasiga muvofiq o'quv dasturining optimal variantini izlash;
- yangi va an'anaviy o'quv kurslari uchun yangi o'quv dasturlarini yaratish va sinovdan o'tkazish;
- malaka oshirish kurslarini o'qitish;
- o'quv jarayonini besh kunlik o'quv haftasini tashkil etish;

- sinflarida, kompensatsion o‘quv mashg‘ulotlarida, pedagogik yordam va pedagogik tuzatish darslarida o‘quv jarayonini tashkil etish;
- gimnaziya, litsey kabi muqobil ta’lim muassasalarida “bog‘cha – maktab”, “maktab
- pedagogika instituti” modullari bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish;
- yangi iqtisodiy sharoitlarda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- yangi texnologiyalar, ta’lim, tarbiya va bolalarni rivojlantirish tizimlarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish

Nazorat savollari:

1. Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalariga izoh bering.
2. Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?
3. Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur?
4. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi sanab bering.
5. Tajriba uchun qaysi muammoni tanlashim kerak?

6. § O‘QUVCHINING TA’LIM JARAYONIGA KREATIV YONDASHUVI

6.1. O‘QUVCHILARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir.

Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta’lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to‘xtamga kelishda ko‘maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo‘lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko‘nikmani ta’lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va

usullari borasidagi bahslarga sabab bo‘ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog‘liqdir. Kreativ fikrlashda ta‘limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko‘nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi.

Maktab yoshlar uchun o‘z qobiliyat va ko‘nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste’dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta‘lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab quvvatlaydi. O‘quvchining qiziquvchanligi ta‘lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta‘lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha

o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur.

Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi. Boshqa ko'nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo'naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek ko'rinadi. Aslida, o'quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r- ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

O'qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shartsharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o'quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o'qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko'p jihatli malakalar bilan bog'laydi. Kreativlikni baholash - o'quvchining qobiliyatlari haqidagi muayyan da'volarni dalilga asoslangan fikrlash jarayonida tahlil etishdir. Umuman olganda, o'quvchining baholashdagi vazifalarga javobi ushbu fikrlash jarayonida dalillar bilan

ta'minlaydi, psixometrik tahlil esa har bir da'voni tahlil qilish uchun isbotning yetarli ekanligini belgilaydi.

PISA baholash dasturidan kreativ fikrlashni baholashning asosiy doirasi sifatida foydalanish mumkin. PISA dasturida 15 yoshli o'quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta'sirchan ko'rinishlarga olib keladigan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta'riflanadi. Ushbu tavsif o'quvchilarning turfa kontekst va ta'lim darajasida g'oya berish amaliyotida samarali qatnashishni o'rganishlari kerakligiga, g'oyaning o'ziga xosligi va munosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g'oyani takomillashtirishga urg'u beradi.

Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar maslahati va kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan. Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo'lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an'anasiga ega bo'ladi. Demak, kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir. Ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar ham zarur bo'ladi.

Masalan, san'at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog'liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e'tirof ham talab etiladi. Aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi) ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir. Tug'ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo'lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko'proq urg'u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog'liq vazifalarga asosiy e'tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta'lim kontekstiga, balki g'oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo'lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir.

Kreativ fikrlash testlarining birinchi avlodi domenning umumiyliigi, ya'ni har qanday sohadagi ijodkorlikning umumiy xususiyatlari mavjudligi haqidagi g'oyaga asoslangani kabi tadqiqotchilar ijodkorlikni baholaydigan sinovlarda shaxsning natijalari umumiy lashtirilishi mumkinligini, bir sohadagi kreativlik ikkinchi sohaga ham o'tkazilishi mumkinligini taxmin qilganlar. Ushbu tadqiqotlar yo ijodkorlik uchun zarur bo'lgan qobiliyat va ko'nikmalar domenga bog'liq bo'lib, domendan domenga ajralib turishini ta'kidlamoqda, yoki ikki yondashuvning qisman jamlagan ijodkorlik

modellarini taqdim etmoqda. “Domen” deganda “san’at, adabiyot, tarix yoki astronomiya kabi ilmning har qanday muayyan sohasi” yoki “muayyan ilm sohasi asosida yotadigan va uni qo‘llab- quvvatlaydigan reprezentatsiyalar turkumi” tushuniladi.

Tadqiqotchilar tomonidan kreativ yondashuvning quyidagi domenlari sanab o‘tilgan: kundalik, ta’limga oid, harakatga oid, ilm-fanga oid va san’atga oid sohalar. Ijodiy faoliyat “san’atkorlik” va “ilmiy sohalariga ajratilgan. Ijodiy faoliyat uch umumiy sohaga bo‘linishi mumkin: verbal, san’atkorlik va muammoni hal qilish. Kreativlik sohalarini o‘rgangan amaliy tadqiqotlarning batafsil tahliliga ko‘ra, matematika ilmiy sohasi doimo boshqa ijodkorlik sohalardan yaqqol ajralib turadi.

Har qanday shaxsning ijodiy faolligi uchun to‘rt zaruriy qismi sanab o‘tiladi: sohaga bog‘liq qobiliyatlar;
kreativlikka bog‘liq jarayonlar;
vazifa borasidagi ishtiyoq (motivatsiya);
mos, qulay sharoit.

6.2. O‘QUVCHILARNING KREATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Chunki o‘quvchi xarakteri tabiatdan qiziquvchan bo‘ladi. Bunda turli xil muammoni o‘quvchining o‘zi mustaqil holatda bajarish jarayonida uchragan muammolarni yengishda o‘qituvchining kreativ salohiyatiga tayanadi, u bilan birgalikda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kreativlik tushinchasi murakkab va uning bir qancha ma’nolari mavjud. Kreativlik o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan sifat emas albatta.

Kreativlik o‘quvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o‘zlashtirishi va o‘zining kundalik faoliyatida qo‘llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olish demakdir. Aslida ham ta’limning vazifasi o‘quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Bular sababli ular globallashuv jarayonida tez o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o‘quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi. Maktablarda ham o‘quvchilarni kreativ fikrlashga bo‘lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda.

Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki:

o'quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg'ularni ularda oshirishdir. Xalqaro tadqiqotlar esa o'quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta'minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O'quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag'batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o'rganish shakllari shakllantirilishi kerak¹. Bu kabi rivojlanish uslublari ta'lim olishi sust o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardек maqsadli va amaliy mumkin.

Ba'zi o'qituvchilar nazarida o'quvchini kreativ fikrlashini oshirish o'quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko'rinadi. Aslini olganda esa, o'quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi. Kreativ fikrlashning afzal tomonlaridan yana biri o'quvchiga yodlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi. Bundan tashqari, o'quvchi bugungi kunda o'z faoliyati doirasida innovatsion yangiliklardan ijodkorona foydalana olishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. O'quvchining kreativlik salohiyatining shakllanishi uning "ehtiyotlar yo'nalishi" hamda "men konsepsiyasidan" kelib chiqadi.

Ta'lim olish jarayonida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi. Keng tarqalgan

usullardan biri sifatida psixologlar tomonidan shaxsni kreativligini aniqlash uchun insho olish ommalashgan. Insho jarayonida o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrini erkin ifodalay oladi, vaziyatga nisbatan shaxsiy yondashuvini bildiradi, fikrini ochiq bayon qiladi. Tavsiya etilgan usul orqali kreativlikni namoyon qilish va aniqlash osonlashadi. Bundan tashqari, kreativlik xususiyatiga O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi strategik yo‘nalishida ham alohida e’tibor qaratilgan. Yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan komil inson shaxs sifatida shakillantirishda o‘qituvchilarning ijodkorlik qobiliyati o‘quvchining kreativlik salohiyatini rivojlantiruvchi asosiy aspekt sifatida qaralgan hamda kreativlik salohiyati ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladigan jarayon ekanligi aytib o‘tilgan. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikr bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi.

Ijodkorlikning psixologik-pedagogik asoslari esa quydagicha ta’riflanadi:

1. Xohish va istak.
2. Tasavvur qilish.
3. O‘z-o‘zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o‘rin egallaydigan fikr yuritish, tasavvur qilish bilan bog‘liq jarayonning asosiy elementlari quydagilar orqali tushiniladi hamda tasniflanadi:

1. Aqliy mehnat
2. Intuitsiya
3. Dunyoqarash

Buyuk olim V.A. Slastyonin ijodkorlikning asosiy xislatlarini

quydagilarda namoyon bo'lishini aytib o'tgan:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llanganligi;
- qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilish;
- kreativlik bu- xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o'z kamolotiga intilish;
- ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati.

Kreativ salohiyatga ega o'quvchilar boshqalarga taqlid qilmaydi, atrofdagi jarayonlarga, beriladigan vazifalarga o'zlari tanlagan usulda mustaqil ravishda yondashadilar. Natijada kreativ salohiyat egalari jamiyatda o'zlarining shaxsiy fikrga egaligi, shaxsiy yondashuvlarining o'zgachaligi bilan tezda ko'zga tashlanadi, ularga nisbatan bo'ladigan munosabatlarda yetakchilikni qo'lga kiritishadi. Kreativlikni rivojlantirish uchun boshlang'ich sinflarda ayniqsa o'quvchilarning psixologik holati muhimdir.

Chunki o'quvchining ruhiy holati, xarakter xususiyatidan kelib chiqib, yondashuv tanladi hamda uning kelajakdagi ijtimoiy mavqeyi shakllantiriladi. To'g'ri tanlangan yondashuvning natijasi esa, yuqori bosqichga o'tgandan shaxsning keying faoliyatlarida sekinlik bilan namoyon bo'la boshlaydi. Shunday dasturlardan biri bu xalqaro PISA dasturidir.

Bu xalqaro tadqiqot faqatgina ijodkoro'quvchilarni ajratmasdan, balki o'quvchilarning fikrlashini orttirish hamda fikrini ifodalashda va bu kabi qobiliyatlarini o'qitish jarayoni maktab faoliyati yoki ta'limning boshqa xususiyatlari bilan qanchalik uzviyligini baholaydi. PISA tadqiqotlarining oldidagi asosiy ishi ta'lim sohasi va

pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko'nikmasiga tegishli xalqaro darajadagi ma'lumotlar berishdan iborat. Shuni takidlash kerakki kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish jarayonida shakllanishi, uning o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashining imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi.

Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda, beriladigan topshiriqlar maktabda o'qitiladigan fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi, amaliy hamda test topshiriqlari sinfda yoki sinfdan tashqari bajariladigan topshiriqlarga yaqin oddiy va sodda bo'lishi kerak. PISA2 tadqiqotlarida kreativ fikrlashning turli jihatlari haqida ma'lumot yig'ish biroz qiyin. Ammo bu asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. PISA dasturida o'quvchilarni kreativ fikrlashini baholash test va umumiy ma'lumot qismlaridan tashkil topgan.

Testlarda mulohaza qilish, baholash uchun zarur topshiriqlar bilan ishlash jarayonida beriladigan ma'lumotlar o'quvchini kreativ fikrlashini rivojlantirish darajasida bo'ladi. To'plangan umumiy ma'lumotlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini o'stirishga qaratilgan boshqa kreativ yondashuvlar (ochiqlik, maqsadga yo'naltiriganlik, ishonchlilik) sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlardagi aktiv ishtiroki orqali to'ldiriladi. Ushbu dastur orqali bolalarda har tomonlama rivojlanish ehtimoli yuqori, faqatgina dastur doirasida yosh chegarasi mavjuddir. Bundan tashqari, maktab o'quvchilari uchun PIRLS dasturi orqali matnni o'qib tushinish darajasini rivojlantirib borsa, PISA dasturi o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholab natijalarga ko'ra rag'batlantirib boradi. Ushbu dasturlarni deyarli barcha fanlar uchun

tatbiq qilsa bo‘ladi ayniqsa, ijtimoy fanlar uchun mantiqiy fikrlash, matnni tushinish, voqeaga tanqidiy-tahliliy yondashuvni shakllantirishda PIRLS3 dasturlarini o‘rni katta. Yangicha metodlarning deyarli barchasi o‘quvchini o‘z ustida ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, kreativligini oshiradi.

Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko‘nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o‘z qobiliyat va ko‘nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste’dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilarning ta’lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘llab quvvatlaydi. O‘quvchining qiziquvchanligi ta’lim jarayonida qo‘l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o‘zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta’lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi.

Maktabda o‘quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga

oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi. Masalan, insonning ruhiy xususiyatlarining rivojlana borishi (aql, idrok, iroda, diqqat va h.k), hayotda o'z o'rnini topa olishi, xalq ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishi, e'tiqod masalalarida og'ishmasdan komil inson sifatida shakllanishiga sababchi bo'ladi. Bunday sifatlarni shakllantirishda maktab bosqichida boshlang'ich sinfdan boshlab, ularning ta'lim bilan birgalikda tarbiya masalasi ham alohida e'tibor qaratiladi va shundagina kutilgan natijaga erishiladi.

Yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq vaziyatlarda esa, ularni eslab qolish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi metodlardan foydalaniladi. Yangi ma'lumotlarni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish, eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotirani asosidir. O'quvchilar xotirasiga tayanib mantiqiy mashqlarni bajarsa, ulardagi bilimga bo'lgan qiziqish kuchayadi, dars jarayonida mahsuldorlik ortadi, o'quvchilar ham o'qituvchilar ham darsga mas'uliyat bilan yondashadilar

Nazorat savollari:

1. O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish usullariga izoh bering.
2. O'qituvchilar kreativ fikrlashni qangay shakllantirsa bo'ladi?
3. Kreativ fikirlashni rivojlantirishda qaysi texnologiyalarni bilasiz?
4. Ijodkorlikning psixologik-pedagogik asoslarini sanab bering?
5. PISA dastur qanday dastur?
6. PISA dasturida o'quvchilarni kreativ fikrlashini qanday shakllantirsa bo'ladi?

7. § KREATIV TOPSHIRIQLAR TIZIMI. KREATIV DARSNING INNOVATSION TUZILISHI

7.1.KREATIV TOPSHIRIQLAR TIZIMI. KREATIV DARSNING INNOVATSION TUZILISHI

Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasi pedagogini muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy- ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Prezidentimizning “2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonida “Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari

shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yoʻlida tez va sifatli ilgarilashini taʼminlaydigan zamonaviy innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi”, [1] deb alohida taʼkidlangan.

Shuningdek, Prezidentimizning 2019-yil 24-may kuni Oʻzbekiston Milliy universitetida oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan boʻlgan uchrashuvda taʼkidlaganidek, “Isteʼdodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni kuchaytirish kerak”. Ana shundan kelib chiqqan holda, taʼlim ustuvorligi, taʼlim mazmuni va tuzilishi oʻzgarmoqda, yoshlarga aynan pedagogik- psixologik bilimlar berilsa-da, umid qilamizki, ularni oʻz atrofida roʻy berayotgan islohotlarga xolis baho berish, oʻzi va oʻzgalar ruhiyati sir-asrorlariga befarq boʻlmaslik, oʻz layoqatlarini oʻstirishning elementar vositalaridan boxabar boʻlishga yordam beradi. Chunki shaxsgina oʻz qobiliyati, iqtidori, layoqati, tafakkuri, diqqati, xarakteri xususiyatlarini bilib, uni toʻgʻri yoʻnaltira olsa, bu nafaqat shaxsning oʻziga, balki jamiyat uchun ham katta naf keltiradi [2].

Oliy oʻquv yurti talabalarining kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muammosini hal qilishning asosiy shartlari talabalarining bu boradagi kreativ nazariy gʻoyalarini oʻz ichiga oladi. Talabalarining kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muammosi boʻyicha keng ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.


Jumladan, pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, M.Urazova, va boshqalarning ilmiy izlanishlarida, ta'lim oluvchilarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativ sifatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta'lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik kreativ mazmuni yoritib berilgan.

Innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G'afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish mazmuni deganda talabalarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lamini tushuniladi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarining innovatsion texnologiyalar asosida takomillashib borish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:



Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish hozirgi kundagi muhim masalalardan biridir.

Chunki oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar talabaning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda talabalarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqish uchun oliy ta'limda talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida

rivojlantirishda ta'lim jarayoniga kompetent yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi.

O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada)

- “Bilim - Ko'nikma – Malaka”ni oltita birlik (sikstet)
- “Bilim - Ko'nikma - Malaka - Amaliy faoliyat tajribasi
- Kompetensiya – Kompetentlik tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishda pedagogik kreativ muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga

xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Tadqiqotchi N.Fayzullaeva pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun talabalar pedagogikaga oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi: pedagogikaning asosiy g'oyalari, konsepsiyalari, pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogik faktlarni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash.

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda

javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativ nazariyachilarining ishlari talabalarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi.

Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda "o'qituvchining roli auditoriyada kreativ muhitini yaratishdan iborat. Pannels va Klakstonlar qayd etganlaridek, muhit (auditoriya haqida gap ketganida maqsad va vazifalar) kreativni shakllantirishga ta'sir etadi, boshqa tadqiqotchi Piirtoning fikricha esa, kreativ tavakkal qilishni talab etadi. Vaholanki, o'qituvchi sinfda talabalar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim.

Talabalar o'z kreativ g'oya va fikrlarini turli yo'llar bilan ifoda etishlari mumkin va ular buni qadrlamoqlari lozim. Talabalar miyada yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. O'qituvchi talabalardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab quvvatlaydi.

O'qituvchining talabalar berayotgan kreativ g'oyalariga nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan

shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o‘qituvchi-talaba munosabatining muhim qismi bo‘lib, talabalar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Muayyan omillar pedagoglarda kreativ sifatlar, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim.

Quyidagi omillar shaxsda kreativni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Kreativ muhitda o‘qituvchi talabalar diqqat-e’tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg‘otuvchi ma’lumot, talabalarni o‘ziga jalb etib, ularda o‘qishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Olib borilgan miya tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, yangilik hamisha miyani faollashtiradi. O‘qituvchi talabalarni yangi ma’lumot va manbalar bilan ta’minlaganda yoki yangi strategiyalarni qo‘llaganda, miya “uyg‘onadi” va e’tibor qaratadi.

Masalan, biror bir adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsga o‘xshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o‘rnini almashtirish, o‘yinlar o‘ynash (bu o‘rta maktab o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o‘zgartirish.

Kreativ muhitda o'qituvchi talabalarga tez-tez tanlash imkonini beradi. Tanlov kreativlikni shakllantirishda muhimdir va u talabalarni ruhlantirib, ularga o'qishni nazorat qilish imkonini beribgina qolmay, balki huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tanlov huquqi nafaqat o'qituvchi-talaba munosabatini yaxshilash, balki har ikki tarafning ham individualligini ifodalashga zamin yaratadi.

Tanlov huquqi faqat bir tomonlama bo'lishi ham mumkin, ya'ni tanlov talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi va yakuniy natija ikki yoki undan ko'p shaklda taqdim etilishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi amaliyotida shaxs kreativ sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va o'quvchilarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi.

Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativ sifatlari nihoyatda past rivojlangan o'quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo'llab bo'lmaydi. Kreativ shaxslar ikki toifaga bo'linadi, degan fikr ilgari suriladi:

1. Katta kreativlar ("katta K"). Ular o'zlari faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilari bo'lib, sohada doimo o'zgarishlarni sodir etishga intiladi.

2. Kichik kreativlar ("kichik K"). Ular o'zlarining kreativ sifatlaridan faqatgina kundalik hayotda muayyan foydaga erishish uchun foydalanadi.

Aksariyat talabalar o'zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi.

Ularning nazarlarida kreativ go'yoki ular yetisha olmaydigan orzu va u faqat iqtidorli shaxslardagina namoyon bo'ladi. Bunday fikrga ega talabalar kreativ sifatlariga egalik o'z sohasining yetakchilari (ya'ni "katta K" toifasiga kiruvchi shaxslar), san'at sohasida tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan talabalarda bo'lishiga ishonadilar.

Talabalar qachonki kreativ shaxs bo'lish uchun o'z sohasining yetakchisigina bo'lish shart emasligi tushunsalar, o'zlarida kreativ sifatlarini samarali shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Shundagina ular o'zlarini past baholashga barham berib, yangi, ilg'or g'oyalar bilan o'zlarini namoyon etishlari, ta'lim jarayoni kun sayin faollik ko'rsatishga muvaffaq bo'ladilar, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yanada yaxshilanadi.

O'zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarni namoyon etish borasida mavjud ko'rsatkichlardan ko'ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar. Amaliyotning ko'rsatishicha, talabalar qancha ko'p kreativ sifatlarini namoyon etsalar, shuncha ko'p faollikka erishadilar.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish vositalari quyidagi axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi.

Multimedia – bir necha ko'rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy

tushuncha.

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam.

Elektron atlas (yun. “Atlas” – birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalaniladi.

Raqamli video lavhalar – o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagi zamonaviy o‘quv manba.

Virtual stendlar – 1) real ob‘yekt, predmet, jarayon, voqea va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi komputerli vosita Immitatsion virtual trenajyor (ingl. “train” – “tarbiyalamoq”, o‘qitmoq”, “mashq qildirmoq”) – elektron shakldagi o‘quv-mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m: mashina (mexanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o‘zlashtirish) ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo‘lgan malakalar takomillashtiriladi. Axborot texnologiyalarining imkoniyati va pedagoglarning kasbiy faoliyatlariga ijodiy yondashishlari natijasida

yaratilgan multimedia mahsulotlari, audio va video materiallar, xususan, video animatsiyalar ham ta'lim jarayonida faol qo'llaniladi.

Multimedia mahsulotlari – o'zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materialini tinglovchilarga yetkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar.

Audio va video vizual materiallar – o'quv axborotlarini komputer texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlovchi materiallar.

Video animatsiyalar – chizilgan (rasml) yoki kichik hajmli obraz (hajmiy, qo'g'irchoq yoki o'yinchoqli ob'yekt)larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tasvirlar.

Prezentatsiya (taqdimot; lot. "praesentatio" – taqdim etish) – muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha o'quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog'ozlari (oddiy yoki vatman qog'ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (komputer, proyektor, protsessor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi

Mohiyatiga ko'ra, axborot texnologiyalari yordamida tayyorlangan va ta'limiy maqsadlarda foydalaniladigan ijod mahsulotlar talabani bilish faoliyatini faollashtirishi, uning o'quv materialini o'zlashtirish maqsadlari bilan qurollantirish, o'quv materialini tushunishi va o'zlashtirishini kuchaytirish, fanlararo aloqani chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun elektron shakldagi ijod mahsulotlari turli jarayon va hodisalarni tushunishni osonlashtirishga, tajribalarni bajarish usullari bilan

tanishtirishga, laboratoriya jihozlarida ishlashni yangillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

O‘qitish texnologiyasini takomillashtirish - ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili. Shuning uchun o‘qituvchilik kasbi rivojlanishining hozirgi bosqichidan o‘qituvchilardan o‘quv jarayonini tashkil etish haqidagi bilimlarni puxta egallab, o‘quv jarayonini texnologiyalar asosida tashkil etish haqidagi bilimlar tizimini egallash talab etilmoqda. O‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan har qanday texnik vosita, shu jumladan, kompyuterlardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan har qanday texnologiya quyidagi uch belgiga ko‘ra xarakterlanadi: jarayonni o‘zaro bog‘liq bosqichlarga ajratish; maqsadga erishishga yo‘naltirilgan ish-amallarni muvofiqlashtirilgan holda bosqichma-bosqich bajarish; natijaga erishishning muqarrar sharti bo‘lgan ish-amallarning bajarilishini qat’iy ta’minlash. Bunday talablar ta’limni axborotlashtirish konsepsiyasining pedagogik dasturiy vositalarini ishlab chiqishda asos qilinib olinadi.

Hozirgi vaqtda ta’limni bosqichma-bosqich axborotlashtirish asosida yagona axborot muhitini yaratish dasturi joriy etilmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchilar ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini o‘quv faoliyatining quyidagi turlarida qo‘llamoqda:

yangi nazariy materiallarni o‘rganish va bayon etishda;

kompyuter dasturlaridan foydalanib, virtual laboratoriya ishlarini o‘tkazishda; o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda; talabalarning mustaqil ishlarida;

ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar, namunaviy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ma'lum didaktik imkoniyatlarga ega.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonini jadallashtirishga, shuningdek ta'lim oluvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga, bilish faoliyatini faollashtirishga, bilimlarni mustaqil egallashga yo'naltirilgan metodikalarni yaratishga zamin tug'diradi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ham foydalanuvchilar o'rtasida interfaol muloqot o'rnatish(bu interfaol muloqot shu bilan xarakterliki, bunda foydalanuvchining har bir so'roviga sistema javob qaytaradi va aksincha, sistema "replikasi" foydalanuvchidan ma'lum ishni amalga oshirishni talab etadi);

- o'rganilayotgan ob'yekt, jarayon haqidagi o'quv axborotlarini komputerdan aks ettirish(ekranda yaqqol ko'rsatish: o'rganilayotgan ob'yektni, uning tarkibiy qismlarini yoki ularning modellarini; jarayonni yoki uning modelini, shu jumladan, uning real olamda bevosita ko'rinmaydigan qismi modelini; o'rganilayotgan jarayonning tadqiq etilayotgan qonuniyatini grafik talqin etish);

- o'rganilayotgan yoki tadqiq etilayotgan ob'yektlar, ularning o'zaro munosabatlari, real, shuningdek virtual sharoitda yuz beradigan hodisalar, jarayonlarni komputerdan yordamida modellashtirish;

- taqdim etilayotgan o'quv materialini tasvirlar yordamida tushuntirish;

- gipermedia asosida axborotlarni taqdim etish;

- katta hajmdagi axborotlarni arxivlash va saqlash;

- hisoblash, axborot-izlash faoliyati jarayonini avtomatlashtirish;
- tajriba-sinovlarni yoki ularning elementlarini o‘quv jarayonida ko‘p marta takrorlash, tajriba natijalarini qayta ishlash;
- o‘quv faoliyati va bilimlarni o‘zlashtirish natijalarini nazorat qilishning axborot-metodik ta‘minoti jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, oliy ta‘lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat–monitoringini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi

7.2.KREATIVLIK - PEDAGOGNING INNOVATSION FAOLIYATINING ASOSI SIFATIDA

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayondir. Negaki o‘qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim. Innovatsiya – ingliz tilidan olingan bo‘lib, «In-ichida», «Novus-yangi», «yangilik», «yangilik kiritish» degan ma‘noni anglatadi.

U muayyan ijtimoiy birlikka (tashkilotga, aholiga, jamiyatga, guruhga, tizimga) yangi, nicbatan turg‘un unsurlarni kiritib borishi va

ularning maqsadga muvofiq o'zgarishidir. «Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo'lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. XX asrning 30 yillarda AQShda «firma innovatsion siyosati», «innovatsion jarayon» atamaları paydo bo'ldi. Innovatsiyalar ikki turga bo'linadi:

- Stixiyali, ya'ni innovatsiyalarga bo'lgan ijtimoiy talablar natijasida paydo bo'lib, bunday innovatsiyalarni yaratishga doir oldindan mo'ljallangan reja, metod va texnologiyalar bo'lmaydi.

- Ongli, ya'ni ilmiy asosga ega maqsadga yo'naltirilgan innovatsiyalar.

Innovatsion pedagogika tushunchasi G'arbda 50 yillar oxirlarida, bizning mamlakatimizda esa keyingi 10 yillikdan boshlab qo'llanilib, olimlar ushbu sohani maxsus o'rgana boshladilar. Jahon pedagogik nashriyotlarda va jurnallarda innovatsion maqolalar chop etila boshladi. So'ngra YUNESKO qoshida ta'limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi tashkil etildi. Bu tashkilot turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlarni tarqatib bordi.

Bu jarayonlar bilan bog'liq holda «innovatsion jarayon» tushunchasi vujudga keldi. Innovatsiya jarayoni - tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizim bo'lib, u o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beruvchi innovatsion harakatlar.

Innovatsion jarayonlarga nisbatan ikki xil qarash mavjud:

- Hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.
- Alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birlamchi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir.

Innovatsion jarayonlar qo'yidagi bosqichlardan iborat:

1. Yangi g'oyaning paydo bo'lishi, ya'ni fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi.

2. Kashf etish vaqti, ya'ni amalga oshgan ob'ekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikni qo'shimcha ishlab, mukammallashtirish. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi.

4. Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalanib (qo'shib) keng tatbiq etilishi.

5. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi.

Yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

Yangilikning ikki turi mavjud:

1. Birinchi marta yaratilgan yangilik. Bu yangilik ixtiroga teng, ya'ni yana o'rnatilgan yangi haqiqat demakdir.

2. Avvalgi mavjud bo'lgan nazariyani yanada takomillashtirib, zamonaga moslashtirishdan iborat.

Fanda innovatsion jarayonning kechishini 4 ta asosiy qonuniyatga bo'ysinishi aniqlangan:

1. Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni. Bunda pedagogik jarayonlar haqidagi tasavvurlar buziladi, pedagogik ong buziladi, pedagogik yangilik baholanadi.

2. Nihoyat amalga oshirish qonuni. Bunda yangilikning hayotiyliги bo'lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

3. Komillashtirish qonuni. Bunda pedagogik innovatsiya qolipga tushadi va amaliy harakat tendentsiyasiga ega bo'ladi.

4. Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va qaytish qonuni. Bunda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Innovatsion jarayonlarning asosini qo'yidagi yondoshuvlar tashkil etadi:

1. Madaniyatshunoslik, ya'ni inson uchun bilishning ustuvorligi.
2. Shaxsiy faoliyat, ta'limdagi yangi texnologiyalardan foydalana olish.
3. Ko'p suhbatli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
4. Individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari, kreativ faoliyati) yondashuvi.

Innovatsion pedagogik jarayonlar qo'yidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

1. O'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarishi va ta'lim-tarbiya olishga yo'naltirilganligi,
2. O'quvchining bilish faoliyatining rivojlanganligi,
3. O'quvchilarning faolligining oshganligi Metodlar.

Pedagoglarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi metodikalar dasturi:

1. O'qituvchining ijodiy fikrlashi, pedagogik masalalarini echish

psixologik- pedagogik analizi.

2. O'qituvchining innovatsion faoliyati: amalga oshirishning texnologiyasi va tuzilishi (nuqtai nazarlar bo'yicha mulohazalar).

3. Yangilikni qabul qilishda psixologik to'siqlar (nizolarsiz munosabatlar treningi).

4. Innovatsion munosabatlar rivojlanish uslublari: i jodiy masalalarni ochish kashfiyot uslublari. «Aqliy xujum», xayratlanarli savollar uslubi, innovatsion o'yinlar va boshqalar.

5. O'qituvchi mutaxassilik faoliyatida refleksiya (refleksiv qobiliyatlari trenningi).

O'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatini baholash va o'ziga-o'zi baho berish pedagogik karta Innovatsion faoliyatni amalga oshirishga o'qituvchi mutaxassislik qobiliyatini baholash

O'qituvchi shaxsining individual xususiyatlari:

- Shaxsning asoslangan ijodiy yo'nalishi
- Shaxsning ijodiy faoliyat metodologiyasini egallab olish qobiliyati
- Qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish
- Pedagogik tadqiqot metodlarini bilishi
- Ijodiy faoliyatdaxshaxsiy ish olib borish imkoniyati va

taqqoslash, jamlash qobiliyati.

O'zi tashkil eta olish qobiliyati O'qituvchining kreativligi.

- Ijodiy faoliyatda hamkorlik va ozaro yordam qobiliyati
- Ko'p sonli echimlarni amalda qo'llash
- Muloxazalarning mustaqilligi (O'z fikrini aytishdan uyalmaslik)
- Tasavvur etish, ijodiy hayol. (g'oyalarni o'rganishda intellektul`

akliy erkinlik)

- Pedagogik faoliyatda bir xilliklardan voz kecha olish, fikrlar harakatsizlikni yenga olish

- Tavakkalchilik

- Pedagogik faoliyat muammolariga ta'sirchanlik

- Tanqidiy fikrlash, muloxazalarga qobiliyati

- O'z ishlarini tahlil qila olish qobiliyati

Natijalar. Yuqoridagi fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda o'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mahiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning tatqiqot ob'ektimiz bo'lgan o'qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Shu bilan bir qatorda olim R.A.Mavlanova talaba-yoshlar orasidagi kreativlikni qiyosiy tajriba-sinov asosida tahlil qilishga harakat qilganlar va quyidagi ilmiy ma'lumotlarni taqdim etgan.

1. Olimaning fikricha «refleksiv - innovatsion amaliyot dasturi birinchidan, ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanadi. Emotsional refleksiv oshkoralik va xushmuomalalik muhitiga imkon beradi. Amaliyotga ijodiy fikrlashning rivojlantirish mashqlari kiritiladi.

2. Keyingi bosqich – hamjixatlikda ijodning hayotiyligi o'zi yoqtirgan hikoyalarni aytish keyin esa ularni maktab hayotiga kiritish, qahramonlar harakterini ko'rsatib berish, syujet o'ylab topish va ijro etish.

3. Shundan keyin u yoki bu personaj nomidan monolog o'qiladi, qahramonlar harakteri analiz qilinadi.

4. Shundan keyin maktab muammolari ko'rsatib beriladi, ulardan eng muhimlarini «+» belgisi bilan belgilanadi.

Asosiy mashqlar esa o'qituvchi innovatsion faoliyati tarkibiy tashkil etuvchilarini modellashtiradi.

Quyidagi mashqlar kiritiladi: assotsiativ davra, pedagogik konsulium, ijodiy tortishuvlar, ochiq darslar, praktikum dasturiga talabalarni o'z refleksiv fikrlashini baholash, analiz qilish.

Yuqorida aytilganidek o'qituvchining kreativligi va innovatsion munosabati rivojlanayotgan muhit ta'siri ostida shakllanishi kerak. Tekshirishlarga asoslanib, ularga binoan ijodni qandaydir tahliliy vaziyatdan yoki mavjud bilim chegarasida chiqish deb belgilab, shunday tasdiqlash mumkin: kreativ muammoni shaxsiy fikrlarga to'la dolzarb qo'yishda ifoda etilgan chuqur xususiyatdir. O'qituvchi dolzarblasha oladigan muhit qo'yidagi imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim: Yuqori darajali noaniq potentsial va ko'p variantlikka. Noaniqlik tayyor yo'nalishlarni qabul qilmay o'zlari izlanishlarini rag'batlantiradi. Ko'p variantlilik ularni topishga imkon beradi.

Nazorat savollari:

1. Ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasbetishi qanday ahamiyatga ega?
2. O'quv topshiriqlarining qanday turlari mavjud?
3. O'quv mashg'ulotlar uchun topshiriqlarni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratiladi?
4. O'quv topshiriqlari uchunish qog'ozlarini tayyorlash qanday didaktik ahamiyatga ega?
5. Kreativ yondashuv asosida o'quv fanlari bo'yicha nazorat-sinov- topshiriqlarini tayyorlashda qanday talablar inobatga olinadi?
6. Talabalarning o'quv faolligini oshirishda keys va darajali testlar to'plamini shakllantirishning ahamiyati qanday?

8. § PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKILLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV

8.1. PEDAGOG O‘QITUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Ma'lumki pedagogning kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologic va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjudshart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalari ko'rish mumkin. O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti. Ta'lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan'anaviy darslar tashkil etilyapti. Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar halihanuz o'zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib

samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab talabalarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil –kreativlik sanaladi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi.

Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik –o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning dolzarb muammolaridan biri -yangi bilimlar, innovatsion usul va vositalar, yangi faoliyatni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy shaxsning ajralmas sifatida ijodkorlikni rivojlantirishdir. A. I. Ostromov va O. F. Ostroumovalar ta'kidlaganidek, ijodiy shaxsni shakllantirish zarurati "birinchi navbatda, u shaxsning ishlab chiqarish yo'nalishini, ijodiy individuallikni belgilab berishi, uning hayotga yo'naltirilganligining asosiy o'zagini tashkil etishi bilan belgilanadi; ikkinchidan, ijtimoiy ijodkorlikning asosiy belgilovchisi; uchinchidan, ijodiy ta'lim va tarbiyaning kontseptual psixologo-pedagogik

tamoyillarini o‘z ichiga oladi”.Hozirgi davrda ta’limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik.

Bir misol, shaxsiy kompyuter ta’limning imkoniyatlarini butunlay o‘zgartirib yubordi. Internet leptomlar ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O‘zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta’lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta’lim va tarbiya tizimiga ilg‘or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog‘liq. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limnitexnologiyalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni takomillashishi, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o‘rin olgan.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilishborasida chora-tadbirlar belgilab berildi[1].

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan

xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanadi. Ijodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlari mutaxassisdan talab qilinadigan ko'nikma, fazilatlar reytingida yuqori o'rinni band qiladi. Bugungi kun taraqqiyot shiddati har bir davlat va uning fuqarolaridan muntazam tarzda yangilik sari intilishni, yangi g'oyalar, tashabbuslar, kutilmagan yondashuvlar va yechimlarni talab etadi.

Bu jarayondan qisqa muddat uzilib yoxud ortda qolish pirovardida sezilarli qoloqlikni, demakki, hamma sohada ilg'or davlatlarga qaramlikni keltirib chiqarishi tayin. Boshqa tomondan bugungi pedagog shiddat bilan o'zgarayotgan zamon bilan hamnafas, uning to'laqonli ishtirokchisi bo'lishi darkor. Chunki Respublikamizda huquqiy normalar tasdiqlanyapti, birining o'rniga boshqasi joriy etilyapti. Aynan shunday – yangi zamonaviy raqamlashtirish davrida kreativ qobiliyatli pedagoglarga yurtimizning barcha sohalari bo'yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishida hal qiluvchi rolni bajaradilar. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi.

Har qanday qobiliyat turishaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat

beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim[2]. Barcha qobiliyat uchun tayanchxususiyat—kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektдан u yoki bu alomatlarniko‘rabilish, ajrata olish ko‘nikmasidir.

Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri —narsa va hodisalar mohiyatini ijodiytasavvurqilishdir.Qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining sezgi a‘zolariga va funksional xususiyatlarigalayoqatdeb ataladi. Layoqat ko‘p qirralidir. Shaxs tomonidan qo‘yilgan talablarning tabiatiga bog‘liq ravishda aynan bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin.F.A.Gallning fikricha, odamning hamma qobiliyatlari “aql” va “qobiliyat” sifatlari miya yarim sharlarida o‘zining maxsus qat’iy markazlariga ega, ya’ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarining miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Shuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do‘mboqchalarni shunchaki paypaslab ko‘rish orqali go‘yo odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo‘ladi.

Qobiliyatlar kasbiy faoliyat davomida rivojlanadi. Qobiliyatlarni takomillashishining birinchi sharti -faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Mehnatga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir[3].Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatlari bilan chambarchas bog‘langan. Kishining talantli ekanligi ma’lum darajada uning psixik jarayonlari, shuningdek, ko‘pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim qobiliyatlarni takomillashishida tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo‘lishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, musiqachi

uchun eshitish, rassom uchun ko‘rish idroklari katta ahamiyatga ega. Kishi o‘z qobiliyatlarini takomillashishi bilan shug‘ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Asosiy vazifa jamiyatning munosib, foydali a‘zosi bo‘lib yetishishdan iboratdir. Kreativ qobiliyat -bu o‘qituvchining alohida o‘ziga xos qobiliyati bo‘lib, o‘z ongida yangi tushunchalarni o‘rganish, uni tahlil etishdan boshlanib, yangilikka intilish, o‘z sohasi bo‘yicha axborotlarni to‘plash, uni alohida dastur holiga keltirib, ta’lim va tarbiya jarayoniga tatbiq eta olish bilan belgilanadi.

Kreativlik –bu tafakkur qobiliyati, har qanday hayotiy jarayonga tegishli yondashuv. Mazmuniga ko‘ra kreativlik –bu har kungi hayotda: ishda, munosabatlarda, o‘qishda va o‘z ongini boyitishdagi kreativ kompetentlik. Ijod so‘zi ijodkor kishilar: musavvirlar, musiqachilar, rejissyorlar, aktyorlar, yozuvchilargagina emas balki shifokorlarga ham nisbatan qo‘llash mumkin.

8.2. PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI VA KOMMUNIKATSIYA HAQIDA TUSHUNCHA

Pedagogika (yunoncha “paidagogike” bo‘lib, “pedagogos” - “bola” va “yetaklayman”) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan hisoblanadi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishda ikki nazariyani o‘z ichiga oladi.

Ular quyidagilar:

1. Didaktika (ta’lim nazariyasi);

2. Tarbiya nazariyasi.

Qobiliyat - bu har bir shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyati bo'lib, u shaxsning hayoti davomida o'z aksini topadi. Har bir shaxsda bir qancha qobiliyatlar mavjud bo'lib, u insonning ish faoliyati va ijtimoiy hayoti davomida shakllanib o'zini oshkor etadi. Insonning kamol topib hayotda o'z o'rnini topishi va kasb yoki hunar tanlashida muhim ahamiyat kasb etadigan omillardan biri sanaladi.

Pedagogik qobiliyat - bu o'qituvchi uchun zarur bo'lgan xususiyat hisoblanadi. U ba'zi insonlarda tug'ma bo'lib, qolganlarida hayoti davomida orttiriladi va shakllanib boradi.

Pedagogik qobiliyat 4 xil xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Ular quyidagilar:

1. Asosiy xususiyatlar;
2. Yetakchi xususiyatlar;
3. Yordamchi xususiyatlar;
4. Tayanch xususiyatlar.

Kommunikatsiya - pedagogik xususiyatning asosiy xususiyatlaridan biri sanalib, bu xususiyat o'qituvchi va o'quvchi, otalar, mahalla faollari va maktab jamoasi ya'ni hamkasblari bilan munosabatlarni keng yoritadi. Hozirgi kunda o'qituvchilarni pedagogic qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlardan maqsad shuki, bo'lajak peadagoglarni bilimli, o'z kasbiga fidoiy qilib tarbiyalash hamda o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida rivojlantirishdir. Qobiliyat - har bir insonning muayyan faoliyatga layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi shart va sharoitdir. U har bir insonda bir qancha va o'ziga xosdir.

Qobiliyatni inson hayoti davomida kashf etadi va rivojlantiradi

yoki undan batamom foydalanmaydi. Bilim - bu ilmiy izlanishlar natijasi. Inson o'zining yoki o'zgalar tajribasi yoki ilmiy ishlari natijasida namoyon bo'ladi. Bilim insonni o'zida hosil bo'ladi va u ilmning bir qismidir. Bevosita ilmni ikki turga bo'lishimiz mumkin. Ular foydali va foydasiz. Foydali ilm - bu shunday ilmki, inson undan hayoti davomida foydalanib manfaat oladi. Foydasiz ilm - bu ilm o'rganiladi ammo foydalanilmaydi. Ko'nikma - o'qituvchi kasbiy faoliyati natijasida hosil qilingan tajribalar va bilimlar asosidagi ishning mukammal usuli. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, u o'qituvchini tajribasi va bilimiga tayanib o'z ish faoliyatini yuritish yo'lidir. Malaka - o'qituvchining ongli faoliyatini bajarishda hosil bo'ladigan kasbiy intellektning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Demak, malaka o'qituvchining kasbiy intellektiga tayanadi hamda ish faoliyatini yuritishda o'z aksini topadi.

Mohirlik - pedagogik ko'nikmalar yig'indisi. O'qituvchining ish faoliyati davomidagi ko'nikmalari asosida dars jarayonini Davlat ta'lim standartlari asosida tashkillashtirishi va bajarish.

Mahsuldorlik - muayyan muammoga ijodkorona yondashib unga tegishli yechim berish. Buning uchun avvalo muammoning kelib chiqishini o'rganib ularni bartaraf etish hamda uni amaliyotga tadbiq etishdir.

Evristik - kasbiga oid yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni o'z faoliyati davomida qo'llash hamda targ'ib qilish. Kreativlik - tajribalar asosida yangi nazariyalar yaratish.

Zamon bilan hamnafas bo'lgan holda o'z g'oyalariga tayangan

holda yangi metod va yondashuvlar yaratishdir.

Pedagogik qobiliyatlar funksiyaisga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. Umumiy (aqliy faoliyat, tanqidiylik, tizimiylik, tahlil qilish, reaksiya tezligi, sintezlash, diqqatni jamlash, e’tiborlilik);
2. Maxsus (tashkilotchilik, injener-texnik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqaviy).

Talant - bu biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta’minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi.

Olimlarning fikricha pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari quyidagilar:

1. O‘z kasbiga muhabbat, o‘quvchilarni sevish;
2. Mutaxassislik fanini chuqur bilish, qiziqish;
3. Pedagogik takt(odob va go‘zallik)ka ega bo‘lish;
4. Bolalar jamoasiga singib ketish;
5. O‘z mehnatiga ijodiy yondashish;
6. Javobgarlikni his etish;
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallash.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiquyidagi xususiyatlar bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yirdamchi xususiyatlar.

Kommunikativ qobiliyat: U psixologik bilim va muomila madaniyatini talab etib, o‘qituvchi o‘z pedagogik jamoasi, ota-onalar, mahalla faollari, o‘quvchi bilan ijtimoiy hayotini yoritadi. Perseptiv qobiliyat: Kuzatuvchanlik muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchini ruhiy olamini tushunish, har bir vaziyatga odilona yondashish.

Empatik qobiliyat: O‘quvchilarini ruhiy holatini tushunish, his etish, achinish, ularga to‘g‘ri maslahat berish. Ta‘lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: O‘qituvchi o‘z bilimini o‘quvchiga kam kuch sarflab, belgilangan muddatda maqsadiga erishishi.

Didaktik qobiliyat: Samarali, jahon talablari va Davlat ta‘lim standartlari talablariga javob beradigan dars berish.

Tashkilotchilik qobiliyati: O‘quvchilarni shaxsiy qobiliyat va talantlaridan kelib chiqqan holda ularni jamoat ishlari va fan to‘garaklariga jalb etish.

Konstruktiv qobiliyat: Darsni puxta rejalashtirish, samarali metod va yondashuvlarni to‘g‘ri vaqtda qo‘llash.

Bilish qobiliyati: O‘qituvchi o‘zining mutaxassislik faninigina emas, balki o‘z faniga chambarchas bog‘liq bo‘lgan fanlarni ham bilishi zarur.

Anglash (tushunish) qobiliyati: O‘qituvchi sinfidagi har bir o‘quvchiga adolatli bo‘lgan holda ularning ziyrakligi, uddabironligi, bilim olish darajasiga ahamiyatli bo‘lishi.

Yetakchi xususiyat - bu shunday xususiyatki, u har bir pedagogda turli xil bo‘ladi. Har bir pedagogning o‘ziga xos uslubi mavjud bo‘lib, u takrorlanmasdir. Bir pedagogda bo‘lgan yetakchi xususiyat boshqasida uchramaydi. Shu tufayli u o‘sha pedagogni boshqalaridan farqlaydi.

Uslub bir bo‘lishiga qaramay bir pedagog unga turlicha yondashadi. Shu yondashuv uning yetakchi xususiyatidir. Tayanch xususiyat - kuzatuvchanlik va ko‘ra bilish ko‘nikmasidir. Bu ijodiy faoliyat uchun boshlang‘ich materialni ko‘ra bilishidir. Pedagogika

fanida bu o‘quvchilarni qobiliyatlari, xarakteri va shaxsiyatiga hamda dars uchun ma’lumotlarga qaratiladi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xususiyatlar va hislatlar quyidagilardan iborat:

- Aql-idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik,kamchiliklarga tanqidiy e’tibor, sobitqadamlik;

- O‘qituvchining nutqi: notqlik san’ati, so‘z boyligi teranligi;

- Aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish;

- Pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo‘lish.

Kommunikativ qobiliyat o‘quvchining ongiga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo‘nalishlari

mavjud. Ular 1. O‘quvchilarni ishontirish;

2. O‘quvchilar ongiga ta’sir etish;

3. O‘zgalarga taqlid etish.

O‘quvchilarni ishontirish: O‘qituvchi ta’sirchan nutq vositasida o‘quvchining bilimi, dunyoqarashi, xulq-atvori, xatti-harakatiga ta’sir etib o‘quvchini qisman o‘zgartiradigan ta’lim va tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri.

O‘quvchilar ongiga ta’sir etish: Fikr almashinuv jarayoni natijasida shakllanadigan sezilarsiz ravishda ta’sir ko‘rsatadigan psixologik xususiyat. O‘qituvchi ta’siri ostida o‘quvchini ongiga voqelikni beixtiyor idrok etishidir.

O‘quvchini ongiga ta’sir o‘qituvchi yetakchilikni qo‘liga olishi uchun muhim qoidalar:

1. O'quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotsional his tuyg'ularga berilmaslik;
2. Har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmaslik;
3. Sinf jamoasini norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olish va uning xatti-harakatidan doim ogoh bo'lish;
4. Pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o'zida takomillashtirib boorish;
5. O'ylamay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr-mulohazalarning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasligini o'qituvchi doimo his etishi lozim.

Taqlid qilish - o'zi sevgan insonini harakatlarini takrorlash va uni o'zi uchun ideal deb hisoblash. Bunda o'quvchi taqlid qilayotgan shaxsini harakatlarini ongsiz ravishda takrorlaydi.

Taqlid qilinayotgan shaxs ikki xil bo'ladi:

1. Hayotda mavjud inson;
2. Badiiy asardagi inson.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishni asosiy usullari:

•Talab: o'quvchini bajargan amallariga va shaxsiga nisbatan o'qituvchini nazoratida bo'lishi. Ijobiy harakatlariga rag'batlantirilishi hamda aksi bo'lsa to'xtatish;

•Istiqbol: o'qituvchi o'quvchini kelajagini ko'ra olishi, rag'batlantirishi, ruhlantirishidir. O'quvchini shaxsiy qobiliyati va ko'nikmalaridan kelib chiqib maqsadiga erishishiga yordam berish,

intilish hamda qiziqishlarini hisobga olishdir.

•Rag‘batlantirish va jazolash: o‘quvchini xulq atvoridan kelib chiqib uning kelajagiga zarur bo‘lgan rag‘batlantirish yoki jazo turini belgilashdir.

•Jamoatchilik fikri: o‘quvchilarni bir jamoa sifatida shakllantirib ularni rag‘batlantirib borishdir. Jamoa fikri foydali bo‘lsa qo‘llab quvvatlash, aks holatda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishdir.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi qilishi kerak bo‘lgan amallar:

- O‘quvchilar bilan bo‘lajak munosabatni modellashtira olish;
- Sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilish;
- Bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o‘rnatish;
- Munosabatda ustun bo‘lish va demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- Munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini doim tahlil qilib boorish.

O‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatishda o‘qituvchi amal qiladigan qoidalar:

- Tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- Tarbiyaning hayotga bog‘liqligi;
- Shaxsni jamoada tarbiyalanishida o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish
- Tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo‘lishva uning shaxsini hurmat qilish
- Tarbiyalanuvchining yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- Tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishini

ta'minlash. Yosh o'qituvchi amal qilishi kerak bo'lgan xushmuomalalik mezonlari:

1. O'z-o'zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish;
2. Kasbiy faoliyatiga baho berish;
3. O'z-o'ziga ta'sir o'tkazuvchi "autogen" mashqlar asosida ishlash;
4. O'quvchi va ota-onalar bilan jamoatchilik ishlarini olib

borishva ular asosida fikr almashish faoliyatida ko'nikma va malakalarni oshirish;

5. Og'zaki ta'sir o'tkazishda salbiy kayfiyatni yengib xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish;

6. Xushmuomalalikka milliy an'ana va urf-odatlarimiz, o'zbekona muomala madaniyati, milliy an'analar nuqtai nazaridan yondashish.

7. O'z ona tilida puxta, lo'nda va jarangdor so'zlar tuza olish va nutqiy mahorat bilan ifodalash.

O'qituvchi - bu shunday shaxski, u o'quvchini ruhlantirishi yoki ruhiy tomondan sindirishi mumkin. O'qituvchi o'zining pedagogik qobiliyatlaridan foydalangan holda o'quvchini jamiyatning bir bo'lagi sifatida o'z o'rnini topishiga ko'maklashishi kerak. O'qituvchi dars berar ekan, avvalo uni puxta rejalashtirishi lozim.

Shuningdek mavzuni qisqa vaqt ichida, kam kuch sarflab, Davlat ta'lim standartlari asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tushuntirishi muhim. Pedagog o'zi dars berayotgan sinf jamoasiga dingib, ular bilan samimiy bevosita aloqa o'rnatishi, har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida ko'rib uning qobiliyatlarini aniqlagan holda jamoat ishlari hamda to'garaklarga jalb etishi kerak.

O'quvchilar jamoasi bilan doimo fikr almashib ularni fikrlarini

e'tiborga olishi ahamiyatli. O'qituvchi tarbiyalanuvchilarga talab qo'yishi va jamoani adolat bilan boshqarib yetakchilikni o'z qo'liga olishi lozim. Sinf jamoasining norasmiy sardorni doimo kuzatib yurishi, sinfdagi har bir tarbiyalanuvchini ruhiy holatini, o'zlashtirish darajasini to'g'ri baholab yechimlar berishi zarur.

Pedagoglar nafaqat o'zining mutaxassislik fani balki u fanga bog'liq bo'lgan fanlarni ham bilishi muhim hisoblanadi. Demak, o'qituvchi o'quvchini kelajagi uchun mas'ul bo'lgan shaxslardan biridir. Agar biz sinf jamoasiga davlat sifatida nazar salsak, unda o'qituvchi prezident, norasmiy sinf sardori bosh vazir va qolgan o'quvchilar xulq atvori, xatti-harakati va qobiliyatlariga nisbatan mansablarni egallaydi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogning kreativlik sifatlariga nimalar kiradi?
2. Qobiliyatlar kasbiy faoliyat davomida qanday rivojlanadi?
3. Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
4. Pedagogik qobiliyat xususiyatlarni sanab bering?
5. Pedagogik qobiliyatlar funktsiyaiga ko'ra nechiga bo'linadi?

9. § KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKILLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV

9.1. PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

“Kompetentlik (ingl. “Competence”- qobiliyat) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning ozlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Biz har bir pedagogni ham kasbiy kompetentlikka to‘laqonli ega deb aytolmaymiz. Kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan pedagog o‘z bilimlarini izchillilik bilan boyitib boradi, kreativlikka intiladi, yangi axborotlarni tinimsiz ravishda o‘zlashtirib boradi, takrorlanmas bilimlarni izlab topadi, davr bilan hamnafas yuradi, bilimlarni qayta ishlaydi va ularni amaliyotda qo‘llashning samarali yo‘llarini o‘ylab topadi. Bilamizki, pedagogik kompetentlik pedagogik jarayon asosida

namoyon bo'ladi.

Qachonki pedagogik jarayon to'g'ri vujudga kelsagina ta'lim beruvchi o'z kompetentligini samarali qo'llay oladi. Xo'sh, o'zi pedagogik jarayon nima? Shu tushuncha haqida fikr yuritsak. Pedagogik jarayon - zarur bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, shaxs va guruhning axloqiy-siyosiy, psixologik va jismoniy sifatlarini shakllantirish maqsadida insonlar tomonidan (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi) tashkil etilgan va yo'naltirilgan faoliyat. Pedagogik jarayon boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, ta'lim oluvchini har bir ijtimoiy jarayondan xabardor qilish, pedagogik jarayonni boshqa jarayonlar bilan uzviy tarzda bog'lash uchun kasbiy kompetentlik bir nechta sifatlarni o'zida namoyon qilgan bo'lishi kerak.

Ana endi kasbiy kompetentlik sifatlari haqida so'z yuritamiz.

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi [14].

Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va talim jarayonining boshqa

ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, talim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) informatsion kompetentlik axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik - pedagogik jarayonni takomillashtirish, talim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik - jarayonning barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish;

g) shaxsiy kompetentlik - izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

h) texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarini boyitadigan ilg'or texnologiyalarni ozlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

i) ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar,

texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Har bir pedagog o'z kasbiy kompetentligiga ega bo'ladi. Bu orqali u pedagogik jarayonda ishtirok etadi. Bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish uchun esa yuqoridagi sifatlarni o'zida aks ettirishi lozim. Kasbiy kompetentlikning barcha sifatlarini to'la-to'kis o'zida mujassam etgan pedagog ularni amaliyotda qo'llash jarayonini ham bexato yo'lga qo'yishi lozim.

Qachonki o'z bilimlarini ta'lim oluvchiga kasbiy kompetentligini qo'llagan holdagina yetkazib bersa, bu pedagogni ta'lim jarayonida chinakam yutuqqa erishgan deya olamiz. Biz mutaxassis, ya'ni pedagogning o'z kasbiy kompetentligini oshirishi uchun o'z-o'zini tahlil qilishi, o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini baholay olishi kerak degan edik. Bular orasida o'z ustida ishlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassisning o'z ustida ishlashi quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir bo'lajak pedagog o'z kasbiy kompetentligini anglab yetishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'zini- o'zi baholay olishi, ta'lim jarayonining jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlashi kerak. Qachonki pedagog o'zini to'g'ri va xolis baholay

olsagina, u o'z sohasida yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi. Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy kompetentlik nafaqat pedagogika, balki boshqa mutaxassisliklarda ham muhim o'rin tutadi, lekin bizning asosiy yo'nalishimiz bo'lgan pedagogika sohasida kasbiy kompetentlikni yuksak darajada egallash, bu orqali pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Shunday ekan, har bir ta'lim beruvchi o'zining kompetensiyalarini to'g'ri anglay olishi va uni amaliyotda to'g'ri va maqsadli qo'llay olishi darkor. Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy soq'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasi yaratish" vazifasi belgilandi.

Kompetentli pedagog - u kim?

Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi? kabi savollar tug'iladi.

Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun- mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday pedagog ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir.

Bo'lajak Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish

pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak pedagoglarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim.

Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z xatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy natijalari uchun

ijtimoiy mas'ullik.

Bo'lajak Pedagogning kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi. Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak pedagogni tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

- ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, pedagog, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining yetarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

- o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob uskunalari, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar,

videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi;

- ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (pedagoglar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;

- tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

«Pedagogning kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin:

Pedagogning kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Buning uchun u: - ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi; - ijodiy izlanishlarning samaradorligi Pedagogning pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim. Funksiyalarni to'g'ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakatlanishini bilishi kerak. Professionallik va kompetentlik bir-biriga oxshash bo'lsa-da, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi.

Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional

pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilar bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya -ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi.

Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasiga ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir. Kompetensiyaning har bir turi ko'nikmalar, bilimlar, ko'nikmalar to'plamini o'z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo'ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko'rsatkichlariga e'tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Kompetentlik qanday shakllanadi?

Pedagogning kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyat bo'yicha olib borilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni respublika pedagoglari ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan mustahkamlashlari zarur.

Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o'rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanishdan tashqari uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng

avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta- qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan. U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi: Ta'limda umummaqsadning qo'yilishi; tuzilgan umummaqsaddan aniq maqsadga o'tish; o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki (tashxisli) baholash; Ta'limga texnologik yondoshuv. Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan.

Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondoshuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi;

Tarbiyalanuvchilarga 3 yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga. Shaxsning ma'lum sifatleri

amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko‘rinishdagi ko‘p yoqlik bo‘lishi, bir vaqtning o‘zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o‘zaro ta‘sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi zarur.

O‘quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o‘zgaruvchan vaziyatlarga o‘rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o‘quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo‘yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi. Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlarini mukammal ravishda egallash pedagogning kasbiy mahoratini oshiradi, natijada ta‘lim-tarbiya samaradorligi ta‘minlanadi.

9.2. KASBIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san‘at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash

shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmalardan iborat. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Kreativ fikrlash ta'siri butun dunyoga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi ta'kidlandi.[6] Kasblar soni chegaralangan, inson qobiliyatining bugun egallangan sarhadlari hali noma'lum bo'lgan davrlarda, maktabning vazifasi odamlarni savodli qilishdan, ularga bilim berishdan iborat bo'lgan.

Bugun esa har birimiz hayot tarzimiz, ishlashimiz va o'zaro munosabatimizni tubdan o'zgartirgan texnologik inqilob jarayoniga guvoh bo'lyapmiz. Bu jarayon ko'lami, maqsadi va murakkabligiga ko'ra, insoniyat shu vaqtgacha boshidan o'tkazgan o'zgarishlarga o'xshamaydi. Natijada, bugungi o'zgarishlarga moslashish, o'zgarishlarni boshlab berish uchun savodli bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bugun ta'lim kontseptsiyasini ishlab chiqishda maktabni

savodli inson tayyorlovchi institutdan, ko'nikma shakllantiruvchi institutga aylantirish tamoyiliga tayanilmoqda. Natijada, maktab jamiyat XXI asr mutaxassisidan talab qilayotgan ko'nikmalar shakllanadigan hal qiluvchi maskanga aylandi.

Maktabni tamomlayotgan bolaning xotirasida bu yerda olgan bilimlarining bir qismigina qoladi. Ammo o'n bir yillik ta'lim mobaynida orttirilgan ko'nikmalardan har bir inson umri davomida foydalanadi. Albert Eynshteyn aytgani kabi, ta'lim – maktabda o'rganganlarimizni unutgach, yodimizda qoladigan ko'nikmadir. Yangilik va kashfiyotlar eng ko'p qilinayotgan davlat fuqarolari “yaratuvchan nou-xau ko'nikmalari“ga ega, ya'ni ular innovatsion fikrlab, yangilik kiritish ishtiyog'i bilan yashashadi. Bugun ko'pchilik davlatlar shaxsda hayot uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishni mo'ljalga olgan maktab ta'limini joriy qilishmoqda.

Bunday ta'limning bitiruvchisi turli vaziyatlarda mas'uliyatni qo'rqmay zimmasiga olishiga, g'ayrat va iroda bilan muammoga yechim topishiga yordam beradigan bilim va ko'nikmalarni egallashi kerak. Bilishga oid ko'nikmalar sirasiga tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, bilimlarni qo'llash, yaratuvchanlik va tadbirkorlik, shuningdek shaxsiy ko'nikmalar sirasiga muloqot qilish va hamkorlik o'rnatish, yetakchilik, mustaqil o'rganishga bo'lgan ishtiyok kabi ko'nikmalarni keltirish mumkin.

Ayni paytda rivojlangan davlatlardan Kanada, Germaniya, Shveytsariya, shuningdek rivojlanayotgan davlatlardan Vetnam shunday ta'lim tizimiga o'tgan. Bolalarda bunday ko'nikmalarni shakllantirishda har xil usullardan foydalanilmoqda. Xususan, Xitoyda

darsliklarga PISA (O'quvchilarni baholashning xalqaro dasturi) testlarini joriy qilish, Avstraliyada onlayn platformalar orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholash, Singapurda bu ko'nikmalarni o'rgatishni ta'lim dasturlariga kiritish ma'qul ko'rilgan. Singapur tajribasiga ko'ra, avval o'quvchida zamon talab qilayotgan ko'nikmalarni shakllantiruvchi darslik yaratiladi, shundan so'ng pedagoglarning bilim va malakasi oshiriladi.

Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhimahamiatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi.[4]

O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga

oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.[2]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kreativ fikrlash har qanday kasb egalari uchun muhimdir. Kreativlik har bir insonda fikrlash darajasini va ularning ijodiy fikrlashni rivojlantirib boradi. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari amaliyotlarda ishtirok etish jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda kelajakda mustaqil ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarning amaliyotlarini to'g'ri tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish zarur ahamiyatga ega hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy kompetentlik qangay holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi?
2. Kasbiy kompetentlik sifatlari haqida izoh bering.
3. Ijtimoiy kompetentlik deganda nimani tushunasiz?
4. Maxsus kompetentlik deganda nimani tushunasiz?
5. Kompetentli pedagog - u kim?
6. Pedagogning kasbiy kompetentligi deganda nimani tushunasiz.

10. § KREATIV KOMPETENSIYANING MAZMUNI VA TUZILISHI

10.1. KREATIV KOMPETENTLIKINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

Ma'lumki ijod – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi, kashf etishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayon bo'lib, inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste'dod namoyon bo'ladi. Buyuk mutafakkirlardan biri Abu Nasr Farobiyning ta'riflashicha “ijod – bilish jarayonida shunday ulug' fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak”. Darhaqiqat, ijod qilish jarayonida inson izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi. Xulosaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi tajribada sinab boriladi.

Kreativ kompetentlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi. Barcha tariflar bir-biridan keskin farq qiliga qaramay, uning ba'zi umumiy jihatlarini ko'rsatish mumkin. Birinchidan, kreativ kompetentlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo'lishi; ikkinchidan, ushbu jihatlar kreativ kompetentlikning dastlabki asoslarida mavjud bo'lmaganligi; uchinchidan esa, har qanday kreativ kompetentlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi.

O'quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini quyidagicha belgilariga ko'ra tasniflash mumkin:

- ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy,

ma'naviy, pedagogik, didaktik, o'quvchilarda, aralash);

- ijod darajasi (mono ijod, mul'ti ijod, mega ijod);

- ijod qamrovi (bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro);

- ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli); - ijodning shakli (innovatsion, ta'limiy, investitsion, aralash);

- umumiy jihatlariga ko'ra (yangi g'oyalarni hayotga tadbiq etish; printsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo'llash);

- yaratilgan ijod mahsulini ma'nosi va murakkabligiga ko'ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyot).

Tahlillar o'quvchining ijodkorligi uning masalalar yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, o'quv topshiriqlarini bajarishi bilan bog'liq muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashi bilan namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Fikrimizga ko'ra, o'quvchining ijodi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog'lay olishi, olingan natijalarni to'g'ri baholab, tahlil qilishi, avvalgi egallanganlari bilan umumlashtira olishidir. Ijodiy faoliyatni o'qituvchi va o'quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi.

Muntazam ravishda muayyan usul, shakl, vositalarga tayanib qolish – yangi vaziyatlarga moslasha olmaslik, kutilmagan vaziyatlarda ish yurita olmaslikka olib keladi. Bu psixologik holat sifatida turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, jumladan: o'zgalar fikr va mulohazalarini umuman qabul qilmaslik; umumiy qabul qilingan

nuqtai nazardan qat'iy himoyalash; yangi mazmun va vositalarga nisbatan eski usullarni qo'llash; yangi usullarda eski usullarning saqlanib qolishi; umuman yangi masalani yechishda an'anaviy usullarni qo'llash kabilar.

O'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi – o'zlashtirilgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi.

Quyidagi ko'rsatkichlar o'quvchilarda kreativlik kompetentlikni shakllantirish mezonlari sifatida taklif qilindi:

- mustaqil qaror qabul qilish;
- o'z imkoniyatlariga ishonch;
- faol izlanuvchanlik;
- fikrlash tezligi;
- fikrlash moslashuvchanligi;
- g'oyaning o'ziga xosligi;
- g'oyaning mukammalligi;
- g'oyaning ijobiy yo'naltirilganligi;
- axborotlarni qayta ishlash va maqsadli qo'llay olish;
- tasavvur kengligi;
- bir-biridan uzoq fikrlarni o'zaro bog'lay olish;
- g'oya salmog'ini baholay olish;
- yechimning nafis, bejirim va oddiyligi;
- ko'plab g'oyalarni yuzaga keltira olish;
- g'oyaning asosliligi.

Ushbu sifat ko'rsatkichlarini baholashda test sinovi, muammoli topshiriq va tajriba usullardan foydalaniladi. Pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlaridan biri butun guruhni bo'lajak o'quvchilarda faoliyatiga barqaror yo'naltirilganlikni shakllantirishga qaratiladi. Bu mashg'ulotlar asosan treninglar shaklida amalga oshirilib, ushbu asosda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish o'quvchilarda o'quvchilarda faoliyatga oid muammoli vaziyatlarni hal qila olish ko'nikmalarining shakllanib borishini tajriba-sinov ishlari tasdiqlab berdi.

Maqsadimiz o'quvchilardagi kreativlik kompetentlikni o'rganish va uni baholash usullari, shuningdek kreativlik kompetentlikni shakllantirish mezonlarini aniqlash va qo'llash asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar samaradorligini asoslashdan iborat etib belgilandi.

Natijada quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

- uzluksiz ta'lim tizimi mazmunining tahlili asosida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar kreativ kompetentlikini shakllantirish bo'yicha nazariy ma'lumotlar o'rganildi va umumlashtirildi;
- kreativ kompetentlikni o'rganish usullari, shuningdek kreativlikni shakllantirish mezonlari belgilab olindi;
- so'rovnomalar vositasida o'quvchilarda kreativ kompetentlik borasidagi asosiy tushunchalarni o'zlashtirganlik darajasi aniqlandi;
- tadqiqot ishida o'quvchilarda kreativ kompetentlik sifatlarini rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan tavsiyalar sinovdan o'tkazildi;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kreativ kompetentlikini shakllantirish uchun zarur didaktik shart-sharoitlar

hamda ijodkor shaxs o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining didaktik modeli samaradorligi baholandi.

O'quvchilar kreativ kompetentlikni shakllanganlik darajasini shakllantirishda ta'lim mazmuni asosida ishlab chiqilgan ijodiy, o'quv hamda muammoli-vaziyatli topshiriqlarga monand mezonlar va usullari tanlandi. O'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish jarayonining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash va monitoringini amalga oshirish tartibi belgilandi hamda sinab ko'rildi. Olingan natijalar tahlili o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslangan trening mashg'ulotlari o'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirishda yuqori samaraga erishilganligini ko'rsatdi.

Nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikmalarni mustahkamlab borishda kreativ kompetentlik asosida o'quvchilar o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish usulikasidan foydalanish o'quvchilarda tayyorgarlik ko'rsatkichlarining yuqori darajaga bo'lishini ta'minladi. Kreativ kompetentlik o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo'lajak mutaxassislarining fan asoslarini o'zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda o'quvchilarda kreativ kompetentlikka asoslangan yondoshuvlarni joriy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi

shaxsiga xos bo'lgan kreativ kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalari tushunchalarini tadqiqot nuqtai nazaridan aniqlashtirib oldik.

Jumladan: kreativ kompetentlik bilimlari – yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan in'ikosini;

kreativ kompetentlik ko'nikmalari – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatda, aqliy jarayon bosqichlarini tez va to'laqonli amalga oshirish darajasini ifodalashi aniqlandi.

Kreativ kompetentlik malakalari esa shaxsning ijodiy faoliyatni qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi. O'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darsda o'quv faoliyatining asosi bo'lishi lozim. Kreativ kompetentlik faoliyati o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha qirralarini qamrab olar ekan, uni samarali tashkil qilish butun ta'lim jarayonining sifatini ta'minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Kreativ kompetentlik faoliyatini rivojlantirishda ilmiy-texnik ma'lumotlar bilan tanishish muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarga axborotnomalar, ilmiy atamalar bo'yicha ma'lumotlar, ixtirochilik va patentshunoslik materiallari haqida ma'lumotlar berib borish muhim manba vazifasini o'taydi. Axborot texnologiyalari va patentshunoslik sohasidagi mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilish, shu sohalarga oid davriy nashrlar bilan muntazam tanishib borish o'zining ijobiy natijalarini beradi. Malakaga ega o'quvchilarda ijodkor mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bir

qatorda innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning muhim manbaini shakllantirishni talab etadi. Bu ishda kreativ kompetentlik tushunchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ilmiy-texnik bilimlar hamda ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi asosida kreativ kompetentlik mahsulini intellektual mulk sifatida yaratishga qaratilgan faoliyat jarayoni sifatida qabul qilindi.

Fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kreativ kompetentlik asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ishlab chiqarish va soha texnologiyalarini yangilanib borish mexanizmlarini o'zlashtirish, o'zining kelgusi faoliyati dinamikasini tasavvur qilish, tadbqiqiy bilimlarni o'zlashtirish ahamiyatini anglash, o'zining keyingi faoliyati yo'nalishini aniqlashtirish, faol amaliy ish olib borish tajribasini egallash hamda ilmiy axborotlar bilan ishlash malakasini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi. Pedagog o'quvchilar bilan o'zaro muloqoti jarayonida albatta ularning qadriyatlari tizimini, o'zini o'quvchilarda-ijodiy rivojlantirishga intiluvchanligi hamda onglilik darajasini e'tiborga olishi lozim. Inson yuksak qadriyatlar hamda g'oyalarga asoslanmas ekan, shaxsiy sifatleri hamda o'quvchilarda ijodkorlik mahoratini rivojlantirish jarayonlari ahamiyatini anglab yetmaydi, oqibatda pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi ijodkorligi to'laqonli amalga oshmasligi mumkin. SHaxs individual rivojlanishining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir.

CHunki, taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati va bilish jarayonlariga

bevosita ta'sirini o'tkazadi. SHaxsning yosh davrlari ichida o'smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. O'quvchi o'g'il va qizlar hayoti hamda faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o'quv ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo'lg'usi mutaxassis shaxsining shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazadi.

10.2. KREATIV KOMPETENTLIKINI TASHKIL QILISH

SHaxs kreativ kompetentlikini tashkil qilishda faqatgina bitta, eng asosiy xususiyatga e'tibor berish bilan cheklanib qolish belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bermaydi. SHu sababli o'smir shaxsining barcha sohalardagi faoliyat ko'rsatkichlarini umumiy majmua sifatida qarab, talab etilayotgan xususiyatlar salmog'ini oshirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlar tahlili asosida kreativlik muammosining asosan to'rt yo'nalishda o'rganilganligi aniqlandi, ya'ni: kreativlik jarayon sifatida; kreativlik natija sifatida; kreativlik qobiliyat sifatida; kreativlik shaxsning xususiyati sifatida. Bilim olishdagi tizimlilik va izchillik nazariya va amaliyotning birligi, Davlat ta'lim standartlari ta'lim-tarbiya jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish bilan ta'minlanadi.

Taxlilga ko'ra o'quvchilarni kreativ kompetentlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshadi deb hisoblash mumkin:

- o'quvchilar e'tiborini masalani hal qilishda qo'llanilgan usulning umumiyliigi, keng qamrovligiga qaratish;
- o'quvchilarni kreativ kompetentlik usullariga o'rgatishni dars maqsadi sifatida emas, balki darsda qo'yilgan vazifani yanada samarali

hal qilishga qaratilgan yangi yo'l, imkoniyat sifatida qaralishi;

- o'quvchilar o'zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar kreativ kompetentlik darslarinining asosiy mahsuli sifatida qaralishi;

- axborotlarni yig'ish, tahlil va talqin qilishni kreativ kompetentlikni yo'lga qo'yishning muhim jihati sifatida qaralishi;

- shaxs kreativ kompetentlik sifatlarini tarbiyalashni ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarining muhim, qamrovi jihatidan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlardan ham tashqariga chiqadigan masala sifatida qaralishi.

O'quvchilar kreativ kompetentlik sifatlarini shakllantirishda ta'lim mazmunini loyihalash va standartlashtirish, o'quvchilar kreativ kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, o'quvchilar kreativ kompetentlikni tashkil etish va rivojlantirishning kreativ pedagogik texnologiyalari, o'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil etish va intensivlashtirishning intellektual o'qitish tizimlarini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq ekan. Ta'lim mazmuni uzviyligini ta'minlashda takrorlanmaslikni ta'minlash asosida fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari, o'quvchi va o'qituvchilarning vaqtdan samarali foydalanishga alohida ahamiyat qaratilishi, o'quvchi yoshlarni mustaqil fikrlash va mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantiruvchi bo'limlar, masala va testlar o'z aksini topishi lozim.

Qo'llanma va tavsiyalarni yaratish bilan bir qatorda ta'lim jarayonida shaxs ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondoshuvlarni joriy etish o'quvchilar kreativ kompetentliki uzviyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekan. SHaxsga

yo'naltirilgan ta'lim avvalo ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. SHu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Pedagog olimlar tomonidan ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondoshuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim; hamkorlik pedagogikasi; adaptiv muloqot pedagogik moslanuvchan texnologiyasi; o'yin texnologiyasi; motivatsion o'qitish texnologiyasi; muammoli o'qitish texnologiyasi; differentsial o'qitish; individual o'qitish texnologiyasi.

Kreativ kompetentlikni shakllantirishda pedagogik asoslarni taraqqiy ettirishning zamonaviy bosqichida umumta'lim maktabi o'quvchilari kompetentlikini ta'minlashning usulologik talablari hamda didaktik shart- sharoitlarini belgilashda yangi yondoshuvga asoslangan o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda. Bunda, o'quvchilar kreativ kompetentlikini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari quyidagilarga asoslanadi: nazariy bilimlarning amaliy ko'nikma va malakalarga o'tib borishi ustuvorligi; ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi muhitning birligi; ta'lim olish hamda ijodiy faoliyatga bo'lgan ijobiy motivatsiyani rag'batlantirish; muammolilik; individual hamda differentsial yondoshuvlarning uyg'unligi; ta'lim shaxs faolligini ta'minlashga yo'naltirilganligi; ta'lim mazmuni hamda o'quv- didaktik materiallarning o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilganligi.

I.Ya.Lerner ijodiy masala ijodiy bo'lmagan masaladan shu bilan farq qiladiki, fikrlovchi sub'ekt (shaxs) o'zining mustaqil ish

faoliyatida ya'ni, masalani yechish jarayonida o'zi uchun yangi bo'lgan natijalar topishga erishadi, deb ta'kidlaydi. Ijodiy masala – algoritmli masala emas, standart masalaga o'xshash va oddiy masala ham emas, balki topilishi lozim bo'lgan yechimni ishlab chiqishga qaratilgan nostandart masaladir. Masalaning g'oyaviy tomoni faqatgina uning yechimini topishda emas, balki sub'ektning masalaga ijodiy yondoshish talablarini qondiruvchi munosabatiga bog'liqdir. Masalaning g'oyasini anglash – bu ushbu masalani yechiladigan masalalar guruhiga qo'shishdir. O'quv-tarbiya jarayoni motivatsiyasi o'quvchilarni faollikka, hamjihatlikka, mashg'ulotning barcha bosqichlarida yuqori darajadagi qiziquvchanlik bilan ishtirok etishga da'vat qilishni maqsad qilib qo'yadi. Motivatsiyani uyg'ota olish ijodkor o'qituvchilar mahoratining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Motivatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga tez kirishib ketishini ta'minlaydi va aksincha beriladigan topshiriqlarning me'yoridan ortiq murakkabligi, olinadigan natijalarning mavhumligi motivatsiyaning turg'un bo'lmasligiga olib keladi.

M.V.Klarinning fikriga qo'shilgan holda qat'iy va moslashuvchan pedagogik texnologiyalarni o'zaro farqlashni ma'qullaymiz. Qat'iy pedagogik texnologiyalarda jarayonga nisbatan ham, ta'lim natijalariga nisbatan ham tashhislilik hamda qayta hosil qilinuvchanlik xos bo'lib, u ta'lim maqsadlariga erishishdagi qat'iy talablarni o'zida aks ettiradi. Bundan farqli ravishda moslashuvchan pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini amalga oshirishga nisbatan qayta hosil qilinuvchanlik talabini qo'yadi, biroq, o'qitish natijalarini tashhisli belgilashni shart

qilib qo‘ymaydi.

Taklif etilayotgan kreativ pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Nafaqat butun pedagogik tizim, balki uning har bir tarkibiy qismlari: maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari, usullari hamda ta’lim vositalari, pedagogik kadrlar hamda ichki ta’lim muhitining shaxs kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi.

2. Kreativ pedagogik texnologiyaning yaxlit ta’lim jarayonda ham, lokal pedagogik bosqichda ham tizimli tavsifga ega ekanligi.

3. O‘quvchilar tomonidan ijodiy o‘quv topshiriqlarini bajarishda yechimni ishlab chiqish traektoriyasi va mazmunining mustaqil belgilanishi.

4. O‘quvchilarda kreativ kompetentlikka yo‘naltirish orqali o‘quvchilarda moslashuvchanlik, harakatchanlik innovatsion yechimni ishlab chiqishga intiluvchanlik sifatlarini tarkib toptirishga qaratilganligi. Kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishda hamkorlik va hamjihatlik; avtodidaktikaning ustuvorligi; rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarga rioya etiladi.

Taklif etilayotgan texnologiyani ikki yo‘nalishdagi yondoshuv:

a) amaliy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvi;
b) nazariy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvi asosida joriy qilish mumkin.

Kreativ pedagogik texnologiyaning asosida to‘rt bosqichdan iborat produktiv didaktik tsikl g‘oyasi yotadi.

1-bosqich – o‘quvchilarni yangi o‘quv materiali bilan muammoli ta’lim asosida tanishtirish, ularda yangi materialni o‘zlashtirishga

ijodiy motivatsiyani shakllantirish hamda ijodiy o'quv topshiriqlarini bajarish tartibi bilan tanishtirish.

2-bosqich – o'quvchilarning ijodiy o'quv topshiriqlari asosiy xususiyatlarini hamda ular yechimini ishlab chiqish ishlab bilan bog'liq o'quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilish.

3-bosqich – o'quvchi o'zi uchun mustaqil o'quv topshiriqlarini belgilashi.

4-bosqich – o'quvchining mustaqil ijodiy faoliyatini yo'lga qo'yish. Bunda o'quvchi o'zi loyihalagan kreativ kompetentlik faoliyati mahsulini asoslashni o'rganadi. O'quvchilar kreativ kompetentlikini rivojlantirish uzviyligini ta'minlashda texnologiya fanining imkoniyatlari, o'quvchilar kreativ kompetentliki uzviyligini ta'minlash jarayonlarini modellashtirish, uzluksiz ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda o'quvchilarning kreativ kompetentlikini rivojlantirish mexanizmlari, kreativ kompetentlik faoliyati asosida o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirish lozim.

Mehnat faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratiladi, ularni xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalariga o'rgatiladi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy gumanitar, tabiiy hamda aniq fanlar asosan akademik litseylarda tahsil yo'nalishini tanlashga tayyorlasa, texnologiya esa asosan umumta'lim maktablarida kasb-hunar soha yo'nalishiga tayyorlashga xizmat qiladi. O'quvchilar kreativ kompetentliki uzviyligini ta'minlash jarayonlarini modellashtirish bu jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishni optimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

SHunga ko'ra, ijodkor shaxs o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini

shakllantirish tizimining didaktik modeli ishlab chiqildi. Unda o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining maqsad va vazifalari belgilab berildi. SHuningdek, modelda ijodkor o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish jarayonining motivatsion maqsadli, mazmunli-axborotli, operatsion-faoliyatli hamda nazorat-baholash darajalari asoslangan o'z aksini topgan. O'z navbatida ushbu vazifalarni amalga oshirishning motivatsion maqsadli, mazmunli-axborotli, operatsion-faoliyatli, nazorat-baholash darajalariga mos ravishdagi didaktik sharoitlari asoslab berildi.

Mavjud sifatlar aynan qaysi bir o'quvchilarda jihatlar bilan bevosita bog'liqligi va ularning o'quvchi shaxsiga ta'sir doirasiga bog'liq ravishda quyidagi guruhlariga ajratildi: individual-tipologik sifatlar; sensor va pertseptiv xususiyatlar; attentsion xususiyatlar; psixomotor xususiyatlar; mnemik xususiyatlar; imajinitiv xususiyatlar; tafakkur xususiyatlari; irodaviy xususiyatlar. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan kreativ pedagogik texnologiyalar o'quvchilar kreativ kompetentlikini rivojlantirish asosida ularning o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. G.Perkins tomonidan taklif qilingan «intellektual chegara» nazariyasi keng ommalashgan bo'lib, u o'tkazilgan ko'plab korrelyatsion tadqiqotlar natijasida har qanday faoliyat turini egallash uchun zaruriy va yetarli intellektual daraja talab qilinishini ta'kidlaydi.

Agar individning intellekt darajasi zarur darajadan past bo'lsa, u bu turdagi faoliyat bilan to'laqonli shug'ullana olmaydi, biroq, intellektning zarur darajadan yuqori bo'lishi qo'shimcha samara bermaydi. Intellekt darajasi «chegara»dan yuqori bo'lgan shaxslar

faoliyatining unumdorligidagi farqlar motivatsiya, shaxs xislatlari va boshqa shu kabi omillar bilan izohlanadi, biroq, bu farq intellekt darajasidagi tafovutni ifodalamaydi. Olimlar kreativlikni shaxsning umumiy qobiliyati sifatida, faoliyat ko'rsatish sohasidan qat'iy nazar, ijodiy mahsuldorlikka katta ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraydilar. Umumiy qobiliyatlar tuzilmasiga intellekt, kreativlik va o'rganuvchanlikni kiritishda biz kognitiv jarayonlarning uch tarkibli modeliga asoslandik.

Bunga ko'ra, har qanday kognitiv jarayon o'zida kognitiv tajribani o'zlashtirish, qo'llash va o'zgartirishni mujassamlashtirishi lozim. Tajriba o'zlashtiruvini amalga oshiruvchi qobiliyatni o'rganuvchanlik bilan, tajribani qo'llash samaradorligini umumiy intellekt bilan, uni o'zgartirishni kreativlik bilan izohlash mumkin. Pedagogik texnologiya samaradorligini tadqiq etishda pedagogik tizim tarkibiga pedagogik kuzatuv elementlarining kiritilganligi, ya'ni mazkur ta'lim texnologiyasini amalga oshirish muhim o'quvchilarda jihatlarni shakllantirishga qaratilganligiga e'tibor berildi.

CHunki, pedagogik kuzatuvga asoslangan pedagogik texnologiya uni to'g'ri amalga oshirish asosida erishilishi lozim bo'lgan imkoniyatlar chegarasini belgilab beradi. O'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishni yanada samaraliroq tashkil etish ta'lim jarayoniga yangi mashqlar va treninglarni joriy etishni taqozo etdi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatuv ta'lim texnologiyasida mavjud ayrim nuqsonlarni bartaraf etish imkonini berdi. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida pedagogik kuzatuvni amalga

oshirishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratildi: pedagogik kuzatuv texnologiyalarini belgilash; taklif etilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash; pedagogik kuzatuvni amalga oshirishni optimallashtirish maqsadida ta'lim muassasalari uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish; o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish

Nazorat savollari:

1. O'quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini qanday tasniflash mumkin?
2. O'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini qanday tashkil qilish mumkin?
3. O'quvchilarda kreativlik kompetentlikni shakllantirish mezonlarini bilasiz?
4. O'quvchilarni kreativ kompetentlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasini sanab bering?
5. Kreativ pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlariga izoh bering.
6. Kreativ pedagogik texnologiyaning asosida nachta bosqichdan iborat?

GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi
Bunyodkor shaxs	ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs.
Davrlashtirish	(yunon. “peridos” – “doira bo‘ylab aylanish”) – muayyan hodisani o‘zida qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan ma’lum vaqt birliklariga ajratilishi.
Kasbiy-ijodiy imkoniyat	1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.
Kasbiy-ijodiy faoliyat	mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.
Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi	ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obyektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot.
“Keys-stadi” texnologiyasi	(ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya

Kreativlik	(lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.
Kreativlikning rivojlanish bosqichi	muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi.
Kreativlikning rivojlanish davri	ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi
Kreativ pedagogika	pedagogda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish; talabalarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o‘rganuvchi fan
Kreativ shaxs	jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.
Kreativ shaxsni tayyorlash	ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ
individual	sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni

Kreativ qobiliyat	shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati
Ijod	ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.
Ijodiy tafakkur	Tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.
Ijodiy topshiriqlar	Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.
Ijodkorlik	Muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.
Ijodkor shaxs	ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.
Ijodkor shaxsni shakllantirish Training a creative persponality	kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish
Ijodiy qobiliyat	ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati
Tabaqalashtirish	(lot. "diferentia" – "farqlanish", "darajalanish") – butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi. ivit
O'zini o'zi ijodiy faollashtirish	shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. David Watson. The Question of Conscience Higher education and personal responsibility. Oxford, Institute of Education Press. 2014.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Tunik YE.YE. Diagnostika kreativnosti. Test YE. Torrensa. Adaptirovanniy variant [Tekst] / YE.YE. Tunik. – SPb: Rech', 2006. – 176s.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
5. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2006
6. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
7. Orlova S.N. Psixologiya. Kreativnaya psixopedagogika [Tekst]: uchebnoe posobie dlya studentov spetsial'nosti 030301 Psixologiya / S.N.Orlova. – Krasnoyarsk: SibGTU, 2009. – 116 s.
8. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjaev va b. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod- moiya", 2010. – 136-140-b.
9. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 b.
10. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
11. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.
12. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

13. Sherer Y. Texniki kreativnosti: kak v 10 shagov nayti, otsenit' i voplotit' i deyu [Tekst] / Y.Sherer. - M.: SmartBuk, 2009. – 136 s.
14. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
15. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: "Fan", 2005.
16. Turdieva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.
17. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. § KREATIV PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA.....	5
2. § KREATIV TA'LIM MUHITI, MOHIYATI VA XUSUSIYATLAR.....	21
3. § DIDAKTIK TA'MINOTNI YARATISHDA KREATIV YONDASHUV.....	45
4. § BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV TASAVVURINI RIVOJLANISHI VA PEDAGOGIKADA ILMIY IJODKORLIK.....	63
5. § KREATIV KOMPETENSIYA MODELINING SHAKILLANISHI.....	78
6. § O'QUVCHINING TA'LIM JARAYONIGA KREATIV YONDASHUVI.....	88
7. § KREATIV TOPSHIRIQLAR TIZIMI. KREATIV DARSNING INNOVATSION TUZILISHI	100
8. § PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKILLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV.....	121
9. § KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKILLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV.....	137
10. § KREATIV KOMPETENSIYANING MAZMUNI VA TUZILISHI.....	153
GLOSSARIY.....	169
ADABIYOTLAR RO'YXATI	172

Ilmiy nashr

N.A. XOLMIRZAYEV, S.S. MAYDONOVA

KREATIV PEDAGOGIKA

(1-qism)

O‘QUV QO‘LLANMA

Texnik muharrir:

Sh.N.Himmatov

Terishga berildi: 06.09.2024 y.

Bosishga ruxsat etildi: 25.12.2024 y.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi: 60x84 ^{1/16}

Times New Roman garniturası. Ofset bosma.

Bosma tabog‘i 11 Adadi 50 dona. Buyurtma № 105

Bahosi kelishilgan narxda.

“NAVOIY” nashriyotda nashrga tayyorlandi.

210105. Navoiy shahri Navoiy ko‘chasi 36 uy.

“TEXNO PRINT NAVOI” MCHJga qarashli matbaa bo‘limida
chop etildi.

